

## Komissiya uchun ishlamang!

Kun-u tun tinimi yo'q insonlar bir maqsad — dilbandining jamiyatda o'z o'rnini topishi va baxtli bo'lishi uchun harakat qilishadi. Biroq bu oliy maqsadga yetishish faqatgina moddiy imkoniyat bilan o'chanadimi?!

2-bet

## Qanday qilib yaxshi o'qituvchi bo'lish mumkin?



45 daqiqa. Bu vaqt kashfiyot uchun yetarli fursat. Butun dunyoda o'qituvchiga nisbatan kashshof, ya'ni kashfiyotchi degan ta'rif ishlatiladi.

9-bet

## Bolalar bor-u, bolalik yo'q

Qashshoqlik inson tinkasini quritadigan og'ir sinov. U hech kimni ayab o'tirmaydi. Bunday vaqtlarda bolalikning oltin davri bo'lmaydi. Murg'ak qalblar erda ulg'ayadi.

13-bet

Kuch — bilim va tafakkurda


# Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 11-mart, chorshanba № 11 (9284)

Xalq ziyolilari gazetasi

So'z tarixi — o'z tariximiz


## Bobolar dasturxon



10-bet

O'roqda yo'q, mashoqda yo'q,  
xirmonda hozir

yoki repetitor mehnati kimlarga  
olqish olib kelmoqda?



A+

$$\frac{65}{12}q = (14 + \frac{4}{8}) + (10 + \frac{3}{3})$$

$$2+2=4$$



$$\frac{65}{12}q = (14 + \frac{4}{8}) + (10 + \frac{3}{3})$$

$$\frac{3}{2} = p(48 + 13C)(35 - 18q)$$

$$q\frac{15}{8} = \frac{3}{2}(\frac{15}{8} - \frac{1}{13})(185 + 122)$$

$$\sqrt{3}$$



## Dolzarb mavzu

Yoshlar o'rtasida oliy ma'lumot olishga qiziqish yildan yilga kuchayib bormoqda. Davlat test markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2019/2020-o'quv yili uchun bakalavriatga 1 mln 66 ming 925 abituriyent hujjat topshirgan bo'lsa, ulardan 99 ming 912 nafari (qo'shimcha kontraktidan tashqari) talabalikka qabul qilingan. Shu o'rinda qiziqib qolasiz, qaysi viloyat yoki tuman abituriyentlari eng yaxshi natija ko'rsatmoqda, ko'proq talabalik baxtiga erishmoqda? Viloyatlar kesimida Buxoro viloyati 18,7 foiz ko'rsatkich bilan reytingda yetakchilik qilayotgan bo'lsa, keyingi

o'rinlarni Navoiy viloyati 16,8 foiz va Xorazm viloyati 13,1 foiz natija bilan egallab turibdi. Ushbu reytingni tumanlar miqyosida oladigan bo'lsak, ("Ma'rifat", 2020-yil, 5-fevral), Shofirkon tumani (Buxoro) 5 009 nafar abituriyentdan 1 176 nafari talabalikka tavsiya etilib, 23,48 foiz ko'rsatkich bilan respublikada yetakchi. Bundan tashqari, Qiziltepa, G'ijduvon, Vobkent, Peshku tumanlari ham yuqori ko'rsatkichlar bilan keyingi o'rinlarni band qilgan. Birgina Buxoro viloyatining o'zidan 4 tuman kuchli beshlikka kirgan.

3-bet

O'qituvchi  
nimani  
o'ylaydi?



Ustozimiz xarakterimizga qarab muomala qilar edi. Juda jahlni chiqarsak, sekin urishardi, lekin hech qachon sinfdoshlarimiz orasida izza qilmasdi. Hozirgi yosh o'qituvchilarda jizzakilik, shartakilik xususiyatlari ko'p. Ustozlarning sochi o'sgan yigitchalarga "Yaqinda lenta taqsak bo'larkan", degan gaplarini eshitganman, lekin chizg'ichda o'lchab, qizlar oldida uyaltirganini endi ko'rishim. To'g'ri, hozirgi bolalarga tez-tez tanbeh berib turmasak, quyushqondan chiqib ketadi, ammo me'yorni bilishimiz kerak emasmi! Biz, o'qituvchilar uchun birinchi o'rinda o'quvchimizning bilim olishga qiziqishi, dars jarayonida tartib-intizomi muhim. O'quvchining ozoda va saranjomligiga otanalar javobgar bo'lsin.

Nasiba ShoABBOSOVA

Yangi o'quv yili uchun tasdiqlangan o'quv rejaga ko'ra, jismoniy tarbiya fani boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun haftasiga 1 soat o'tilishi belgilanibdi. Haftada 2 kun bolalarimiz intizor kutadigan bu fanning qisqarishini to'g'ri baholab bo'lmaydi. Aslida 3 soat bo'lishini talab qiladigan o'quvchilarimizga qanday tushuntiramiz? Qolaversa, jismoniy tarbiya fanining qisqarishi maktablarda erkak o'qituvchilarning kamayishiga ham olib kelishi turgan gap. Chunki aksariyat jismoniy tarbiya o'qituvchilari erkaklar.

Faxriddin PO'LATOV

Yaqinda 5 tashabbus bo'yicha bo'lib o'tgan festivalda o'quvchimiz 1-o'rinni egalladi. Xalq ta'limi bo'yicha mudiri quvonchini yashirolmay, o'quvchimga sovg'alar ulashdi, ko'pchilik ichida maqtadi. Maktabimizda esa hech kim bizni eslamadi. Direktorimizdan bir og'iz rahmat eshitmadim. Bu kabi holatlar birinchisi yo ikkinchisi emas. O'quvchilarimizning muvaffaqiyatidan kuch olib ishlayveraman, ishlayveraman. Ammo har zamonda bir bo'lsa ham, shirin so'z va maqtoq istarkansiz.

NARGIZA

## Oqqan daryo oqaveradi

Xalqimizning shu naqli juda purma'no. Mazmuni ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi mushtaraklik bilan bog'lanadi. Nega bunday deyaotganimni angladingiz chog'i. O'tmishimiz buyuk.



Zaminimizdan yetishib chiqqan daholar unga shunday ulug'vorlik bag'ishlagan. Hozir o'sha buyuklarimiz nomini, ularning o'z davrida amalga oshirgan ishlarini-yu, bizga qoldirgan madaniy merosini birin-ketin sanash fikridan yiroq-

man. Men aytmochi bo'lgan gap boshqa...

Bugun o'sha daryo qay holatda oqayotgani to'g'risida mulohazalarim bor. Ajdodlar nomi bilan faxrlanish — yaxshi tuyg'u. Bu barcha xalqlarga ham nasib etmagan, nazrimda. Biroq bobolarga munosib voris bo'lish-chi? Biz bunga nechog'lik harakat qilyapmiz? Shu savol hammamizni, birinchi navbatda, ta'lim-tarbiya xodimlarini, shu soha mutasaddilarini o'ylantirishi kerak.

Bolalarimizni bog'cha yoshidan boshlab mutolaga, ilm olishga qiziqtirishimiz lozim. Bunda ota-ona mas'uliyati alohida ahamiyatga ega. Oiladagi muhit farzand ongiga singib borishi va butun umri davomida unga hamroh bo'lishi allaqachon isbotini topgan. Kitobdan, yaxshi xulqdan yiroq avlod bilan ajdodlarga munosib voris bo'lish haqida o'ylamasak ham bo'ladi.

Yana takrorlayman: bunda mas'uliyat biz — muallimlar gardaniga ko'proq yuklanadi. Shuni yaxshi his etakkina, o'sha o'zlarimiz yana to'lib oqadi, sersuv daryoga aylanadi.

Sayyora MIRZAQULOVA,  
Yashnobod tumanidagi  
215-maktab o'qituvchisi

## O'qituvchi minbari



Har birimiz bolamizning ertangi kuni porloq bo'lishini istaymiz. Ularning moddiy ehtiyojini qondirish uchun ota-ona bor kuch va imkoniyatlarini sarflaydi.

## Komissiya uchun ishlamang!

Kun-u tun tinimi yo'q insonlar bir maqsad — dilbandning jamiyatda o'z o'rmini topishi va baxtli bo'lishi uchun harakat qilishadi. Biroq bu oliy maqsadga yetishish faqatgina moddiy imkoniyat bilan o'lchanadimi?!

Ayrim kishilar hayotiy barcha ehtiyojlarni, hatto ma'naviy qarashlarni ham pul bilan bog'lashadi. Ular o'zlarining topish-tutishlari yaxshi bo'lsagina kelajakka ishonish, oilaviy muammolarga yechim topish mumkin deb hisoblashadi. Hattoki bolasining uy vazifasini ba-

jarishi yoki ro'zg'or yumushlariga qarashishi uchun ham pul beradigan ota-onalar uchraydi. Bolalarni har bir yutug'i uchun moddiy rag'batlantirish shart emas, aksincha, ularni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kerak. Pul uchungina intiladigan bola tarbiyasida salbiy o'zgarishlar kuzatiladi: xudbinlik, faqat o'zini o'ylash, har bir qilgan ishi uchun nimadandir umidvor bo'lish hissi kuchayib boradi. Bu holatda bora-bora korrupsiyaga qarshi tura olmaydigan avlod tarbiya topishi sir emas.

## Har bir o'quvchi e'tiborga loyiq!

Yana bir masala shuki, bola axloqiga, ta'lim-tarbiyasiga doir noxush holatlar yuzaga kelganda, barcha mas'uliyatni maktab va o'qituvchilar zimmasiga yuklashga o'rganib qoldik. Vaholanki, hali ham oramizda shunday ota-onalar uchrab turadiki, ular farzandining na o'qishidan xabar oladi, na qanday ta'lim olayotganiga qiziqadi. Mabodo, o'qituvchi-murabbiylardan birortasi bolasini urishib, tanbeh berganini eshitib qolsa, kelib o'qituvchining yoqasidan oladi, uni haqorat qilishgacha boradi. Bugungi tarbiyaning katta muammolaridan biri ota-onaning farzandiga yetarlicha vaqt ajrata olmayotganligi bilan chambarchas bog'liq. Ota-ona farzandi bilan yetarli darajada suhbatlashmas, birga vaqt o'tkazmas ekan, bolalar o'z ko'zlarini bilan ko'rayotgan hodisa va harakatlarni asosida tarbiyalanib boradilar.

O'qituvchisi har bir o'quvchining bilimini to'g'ri baholashi, o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lishi va ta-

labchanligini iliq munosabatlarni orqali ifodalashi zarur. Zinhor o'quvchining shaxsiyatiga tegmasligi lozim. Hayotda qoqilmasliklari, faqatgina o'zini o'ylaydigan odamga aylanib qolmasliklari uchun o'z-o'zini tanqid hamda bajargan ishlarini kerak bo'lsa bir oyda bir marta taftish qilishni o'rgatish kerak. Har bir bolaning ko'nglidagi kechinmalarni seza olishi, uni nimalar qiynayotganini bilish uchun "siri" suhbatga chorlashi bugungi kun o'qituvchisining vazifasi hisoblanadi. Zero, o'qituvchi o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashishi, shunchaki turli komissiya va tekshiruvchilar uchun emas, balki O'zbekiston kelajagining taqdiri o'z qo'lida ekanligini anglagan holda mehnat qilishi kerak.

Nozila MAHMUDOVA,  
Pop tumanidagi 37-umumta'lim  
maktabining  
o'zbek tili fani o'qituvchisi

## Chalkashliklar o'quvchini chalkashtiryapti

Yosh avlodga yaxshi talim-tarbiya berish haqida bot-bot takrorlayapmiz. Lekin ba'zi darsliklarimizda xatoliklar uchrab turibdi.

Bir nechta misol keltiray. 2019-yili nashrdan chiqqan 5-sinf adabiyot darsligida Imom Buxoriy hayoti va ijodi mavzusini o'rganar ekanmiz, to'plagan hadislar soni 7 397 ta deb ko'rsatiladi, yangi o'quv yili uchun chop etilgan 9-sinf adabiyot darsligida esa 7 275 ta deb keltirilgan.

10-11-sinf ona tili darsligi 2017-yili nashr etilgan bo'lib, o'ta qisqa muddatda maktabga — o'quvchilar ko'liga yetib kelgan. Har bir sinf darsliklarida asosan uslubiyat bo'limi o'rganiladi, berilgan qoidalar ham uzundan uzoq. Bu darsliklarni ko'zdan kechirar ekan-

siz, tilshunos olim B.Mengliyevning quyidagi fikrlari yodga tushadi: "...boshi ham, adog'i ham, buning ustiga darslikdan darslikka o'tish, sinfdan sinfga ko'chish bilan o'zgarib turadigan son-sanoqstiz ilmiy (lingvistik) qoidalarini yodlatamiz. Matmi, berilgan gaplarni chuqur, ipidan ignasigacha tahlil qildiramiz. Biroq bu "bilim"lar og'zaki va yozma nutqimizga qay darajada ta'sir qilishi haqida o'ylab ham ko'rmaymiz".

O'quvchilar qo'lga yetib kelayotgan har bir darslik, eng avvalo, DTS talablariga javob bera oladigan, imloviy va uslubiy xatoliklardan xoli bo'lmog'i lozim. Kelgusida bu ishga mas'ullar yuqoridagi masalalarga jiddiyroq yondashsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi...

Farida TOHIROVA,  
Chirchiq shahridagi  
13-maktab o'qituvchisi

## Tajriba

## Tarixiy mavzudagi badiiy asarlarni qanday o'qitasiz?

Maktabimizda o'quvchilarni kitobga qiziqtirish maqsadida kitobxonlik kechalari, yangi kitob taqdimotlari, viktorinalar, ijodkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Shaksiz, bular natija bermoqda. Ammo maktab yoshidagi bolalarga tarixiy mavzulardagi badiiy adabiyotlarni o'qitish oson bo'lmayapti...

Dars jarayonida Oybekning "Navoiy" va P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlari o'quvchilar tomonidan qiziqib o'qilishi uchun turli innovatsion texnologiyalarni qo'llab ko'rdik. Samarali natija bergan "Sud" pedagogik texnologiyasini P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani misolida ko'rsatib beraman. Sinf o'quvchilari to'rt guruhga bo'linadi:

- 1) oqlovchilar;
- 2) qoralovchilar;
- 3) sudyalari;
- 4) xolislar.

Roman mustaqil o'qishga beriladi. Ayni paytda asardagi 4-5 yirik voqea bo'yicha tuzilgan savollar o'quvchilarga oldindan taqdim etiladi. Ular o'zlarining qaysi guruhda ekanliklarini bilgan holda o'z qahramonlarini yoki pozitsiyalarini himoya qilishadi. Masalan, "Bobur nega Andijonni tashlab chiqib ketdi?", degan savolga oqlovchilar Boburning tang ahvolda qolganini, temuriy shahzodalarning taxt uchun olib borgan ayovsiz kurashlari, mulozim-

larining xiyonati bois shunga majbur bo'lganini asar voqealari asosida isbotlab beradi. Qoralovchilar esa iloji boricha ularning fikriga qarshilik ko'rsatadi. Sudyalari xolislar fikrini ham eshitib, odilona xulosa qilishadi.

"Humoyun og'ir xastalaganda Bobur nega Ko'himur olmosini ehson qilish o'rniga o'z jonini fido qildi? Xonzodabegim nega Shayboniyxonga turmushga chiqdi? Bobur nega raqibining onasi malika Baydanning jonini omon saqladi? Bobur shoh va shoirlikni birdek uddaladimi?" kabi savollar ham yaxshigina munozaraga sabab bo'ladi. Tahlillar asar badiiyatini tushunishga, voqealarning o'quvchilar yodida uzoq saqlanishiga yordam beradi.

Hatto qoralovchilar ham o'z fikrlarini ibtoshlash maqsadida matnga jiddiy murojaat qilishadi. O'zlashtirishi sustroq bo'lgan, kitob o'qishni uncha xushlamaydigan o'quvchilar ham asar tahlilida juda faollashib ketishdi va romanni chuqur tahlil qilishga urinishdi.



Nazarimda, maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarini sudya yoki advokat o'mida ko'rishdan mamnun bo'lishdi va o'zlariga bildirilgan ishonchni oqlash uchun ham qattiq harakat qilishdi. Albatta, o'qituvchining o'zi ta'lim menejeri sifatida jarayonni boshqarib boradi va oxirida xulosalaydi.

Bunday pedagogik texnologiya o'quvchilarda tarixiy asarlarni o'qishga qiziqish uyg'otadi, muhim shaxs va voqealarni eslab qolishga undaydi. Qolaversa, o'quvchining dunyoqarashi kengayishi, nutqi ravonlashishi, o'ziga ishonchi oshishida ham katta ahamiyatga ega.

"Sud" texnologiyasini "Boburnoma" asarini o'qishda, ruboiylarni tahlil qilishda ham qo'llash mumkin.

"Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,  
Har kimki jaf o'qilsa, jaf o'qituvchidir."

Yaxshi kishi ko'rmas yomonlig' hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir"

kabi ruboiylari mag'zini chaqish, hayotiy asosini topish uchun ham shoh va shoir, ota va aka, ilm-ma'rifat va adolat homiysi bo'lgan, uch yuz yildan ortiq hukm surgan Boburiylar saltanatining asoschisi — buyuk sarkarda shaxsiyatini chuqurroq o'rganish lozim bo'ladi. Bunda o'quvchilarning "Yulduzli tunlar" va "Humoyun va Akbar" romanlarini katta qiziqish bilan tushunib mutolaa qilishi ayni muddao.

Rayhon USMONOVA,  
Hazorasp tumanidagi 32-maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

# O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir yoki repetitor mehnati kimlarga olqish olib kelmoqda?



(Davomi. Boshi 1-betda.)

2018/2019-o'quv yilida Buxoro viloyatidan 10 250 abituriyent hujjat topshirib, ulardan 2 110 nafari o'qishga qabul qilingan. Tumanlar kesimida esa 22,8 foiz natija bilan (3 172 abituriyentdan 722 nafari talaba bo'lgan) yana Shofirkon tumani birinchi. Buxoro viloyat xalq ta'limi boshqarmasining ma'lumot berishicha, o'tgan yili viloyat bo'yicha 17 664 nafar 11-sinf bitiruvchilaridan 4 528 nafari (25,6 foiz) talabalikka qabul qilingan. Bu respublika miqyosidagi eng yaxshi natijadir. Har yili birinchilikni qo'ldan bermayotgan Shofirkon tumaniga keladigan bo'lsak, xalq ta'limi bo'limining ma'lumotlariga qaraganda, tuman miqyosida 11-sinfni tugallagan 1 901 nafar o'quvchidan 370 nafari (19,46 foiz) oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan. Bu esa tumanlar bo'yicha respublikada eng yuqori ko'rsatkich. Talabalikka tavsiya etilgan 370 nafar bitiruvchi tarkibiga 1 nafar xalqaro oliy ta'lim muassasasiga, 12 nafar xorijiy oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan abituriyentlar kiritilmagan. Jami 383 nafar talaba bo'lganlardan 75 nafari davlat granti, 308 nafari esa shartnoma asosida o'qiyapti.

Ushbu statistik ma'lumotlar bilan tanishib chiqqach, beixtiyor savol tug'iladi: nima uchun Shofirkon tumani ko'rsatkichlari har tomonlama yuqori? Ushbu natijani bitiruvchilar o'z tamomlagan ta'lim muassasalarida olgan bilimlari ortidan qayd etmoqdami?

Afsuski, yo'q. Shofirkondagi maktabda tahsil olganlardan biri sifatida aytishim mumkinki, tuman ta'lim muassasalarida ta'lim sifati boshqa joylarnikidan uncha ham yuqori emas. Hattoki shahar maktab-kollejlarga qaraganda pastroq. Ta'lim muassasalarida bilim saviyasi talabga javob bermaydigan o'qituvchilar ham yetarlicha. Hatto o'qituvchilar attestatsiya imtihonlaridan ko'zbo'yamachilik yo'li bilan o'tishi holatlariga ham guvoh bo'lishingiz mumkin. Xo'sh, unda qanday qilib o'quvchilar bunday yuqori natijalarga erishmoqda? Javob aniq: hammasi repetitorlarning mehnati tufayli. Shu yil

faoliyat boshlagan "Ziyo" yoshlar o'quv markazini hisobga olmasa, Shofirkon tumanida abituriyentlarni tayyorlaydigan o'quv markazlari mavjud emas. Ushbu markaz ham hali ma'lum bir natija ko'rsatganicha yo'q. Tumanda 50 dan ortiq repetitor shaxsiy faoliyat olib boradi. Barcha yuqori ko'rsatkichlar aynan shularning mehnati bilan. Tumanda repetitorlarning faoliyat yuritishi, ular orqali abituriyentlar o'z maqsadiga erishishi yaxshi, albatta. Ammo achinarlisi shundaki, kollejdagi tahsil oladigan o'quvchilar repetitorga qatnashi oqibatida bir-ikki haftada bir demasa, umuman kollejdagi darslarga bormaydi. Maktab o'quvchilarini esa 4-dars soatidan so'ng qancha izlamag, maktab hududidan topilmaysiz. E'tiborlisi, hech bir o'quvchi bekorchilik yoki ko'chada daydush uchun darsdan qochmaydi. ULAR REPETITORG AQTAYDI.

Repetitor tahsilini ko'rganlardan biri sifatida aytay olamanki, ularning darslari 4 soatdan kam bo'lmaydi. Ustiga-ustak, aksariyat repetitorlar darsi soat 13:00 yoki 14:00 da boshlanadi. Repetitor dars o'tadigan hududning uzloqligini hisobga oladigan bo'lsak (aksariyat tuman markazlarida faoliyat yuritadi), o'quvchilar darsdan qochmasa, ulgurmaydi. Aks holda, kechgacha oq qolishi kerak. Bunday olib qarasa, 3 ta fanga tayyorlanib ham maktabga, ham repetitor mashg'ulotiga ulgurish juda qiyin. Endi esa fanlar soni yana ikkita organini hisobga olsak, maktablardagi davomatni ko'z oldingizga keltiravering. Xuddi shu bilimni maktabdan olsa ham bo'ladi-ku, deyidiganlar uchun aytib o'tish joizki, maktabdagi o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan o'qituvchilar repetitorlik bilan shug'ullanishga o'tib ketgan. Maktabda qolganlarining aksariyati esa "kunim o'tsin"ga kelib-ketishadi. Ular uchun o'quvchilarning repetitorga qatnashi afzalroq.

Shofirkon tumanida jami 55 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va bitta matematika-fizika fanlarga ixtisoslashgan maktab mavjud. Ushbu maktablarda umumiy hisobda 2 880 o'qituvchi (2 091 nafari,

ya'ni 72 foizi ayol o'qituvchilar) ishlaydi. Bulardan: 2 707 nafari oliy (90,1 foiz), 267 nafari o'rta maxsus ma'lumotli (9,9 foiz). Toifasi bo'yicha esa 71 nafari oliy toifali (2,5 foiz), 310 nafari 1-toifali (10,8 foiz), 932 nafari 2-toifali (32,4 foiz), 1 567 nafari mutaxassis (54,4 foiz).

2018/2019-yilida bo'lib o'tgan fan olimpiadalari natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak ham, respublika miqyosida faxrli o'rinnlarni (1-2-3-o'rinnlar) egallagan o'quvchini uchratmaymiz. Birgina 2018-yil 10-16-yanvar kunlari Qozog'istonning Almati shahrida o'tkazilgan Xalqaro 14-Jauntikov olimpiadasida Shofirkon tumanidagi 1-maktabning 10-sinf o'quvchisi Aziza Amrullayevaning faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlanganini hisobga olmasa, yuqori natijalar yo'q. Bu o'quvchi ham ushbu natijani o'z matematika o'qituvchisiga darsdan so'ng qo'shimcha repetitorlik mashg'ulotlariga qatnagan tufayli qayd etgani ma'lum bo'ladi. Shuning uchun Shofirkon tumani mutasaddilari repetitorlarining bilimi bilan qay darajada faxrlansa, ta'lim tizimi shu darajada sustligini tan olishi kerak. Chunki repetitorlar orasida o'quvchilarini ko'paytirish va ularning OTMLarga kirishi borasida o'ziga xos raqobat borligi sababli ular o'z ustida tinimsiz ishlaydi. Maktab o'qituvchilari orasida esa bunday raqobat muhiti shakllanmagan. Chunki maktablar miqyosida o'tkaziladigan fan olimpiadalariga tayyorlanishda ham ota-onalar va o'quvchilar repetitor ta'limini afzal ko'radi. Buning sababi esa o'qituvchilarning o'quvchilar bilan darsdan tashqari ishlamasligi, o'quvchilarning talab qilmasligida. Ota-onalar ham o'qituvchidan talab qilish o'rni, cho'ntagidan pul to'lab farzandini repetitorga yuborishni afzal ko'rmoqda. Bu o'qituvchilarning kundun kunga dangasa bo'lishiga olib kelmoqda. To'g'ri, jon kuydirib ishlaydigan, maoshini halolab oladigan o'qituvchilar ham yo'q emas, ammo juda kam.

Menimcha, o'qituvchilarning nafaqaga chiqqach ham ishini davom ettirsa, ham pensiya, ham maoshni to'liq olishiga ruxsat berilganligi ta'lim sifatiga ta'sir o'tkazmoqda. Kekska o'qituvchilar yangilangan darsliklar orqali o'quvchilarga ta'lim berishda bir qancha muammolarga duch kelishmoqda. Bu vaziyatda ham yana repetitor ta'limiga ehtiyoj kuchaymoqda. O'qituvchilarning o'zi esa bunday vaziyatlar dars vaqtining chegaralangani, ushbu cheklangan vaqt davomida o'qituvchi ham eski mavzuni so'rashga, ham yo'qlama qilishga, ham yangi mavzuni tushuntirish-u mavzu yuzasidan taqdimotlar ko'rsatishga ulgurmasligi, asosiy vaqti hujjatbozlig-u, konspekt to'ldirish bilan o'tib ketishi, dars jadvalida bir kunda bir-biriga muqobil bo'lmagan 4-6 soat fan joylashtirilishi evaziga o'quvchi miyasi ma'lumotlarni qabul qilishda qiynalishi, kerakli qo'shimcha o'quv qo'llanmalari uchun maktab budjetidan yetarlicha mablag' ajratilmasligi bilan izohlaydi. Bir tomondan ularning fikrida ham jon bor. Repetitorlar

darsni o'zi ishlab chiqqan dastur va o'zi belgilagan vaqt reglamenti asosida olib boradi. O'tgan darsi yuzasidan ham hisobot tayyorlab yurmaydi. Bu esa repetitorga anchagina erkinlikni hadya etadi. O'qituvchilar esa na o'quv dasturida, na vaqt borasida erkin bo'lolmaganliklari birmuncha noqulayliklar tug'diradi. Bu esa ta'lim tizimimizning hali oqsoq jihatlari yetarlicha ekanligidan darak beradi. Bu birgina Shofirkon tumanidagi holat. Avval ko'rsatkichlarga boqib, keyin pardaq ortiga nazar tashlasangiz, achchiq haqiqatga guvoh bo'lasiz.

Bunday holatlarni kamaytirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi maktablarda 2020-yildan 10-11-sinf o'quvchilari 3-chorakdan boshlab tanlagan ixtisosligi bo'yicha fanlar doirasida ta'lim olish tizimini eksperiment sifatida yo'lga qo'ydi. Ammo ushbu tizim talablariga javob beradigan darajadagi mutaxassislar yetarli emas ekan, tizim naf berarmidi? Xo'sh, tumanda ushbu masalalarga yechim topish uchun nima qilish kerak? Fikrimcha, maktablarda o'qituvchilar o'rta adolatli saralash ishlarini olib borish lozim. O'qituvchilarni hujjatbozlik, tadbirbozlik, yo'qlama va shu kabi bir qancha yuklardan to'liq ozod etish, ularga o'quv dasturi bo'yicha ham birmuncha erkinliklar berish kerak. Maktabda o'qitiladigan fanlarni optimallashtirib, mukammal dars jadvalini shakllantirish lozim. Bundan tashqari, xususiy tarzda faoliyat yuritadigan repetitorlarni yuqori maosh evaziga bo'lsa ham maktablarga jalb qilish kerak. Shundaygina o'quvchilar tushlikkacha darsga, tushlikdan keyin repetitorga chopishdan xalos bo'ladi. Moddiy tomonlama ota-onalarga ko'mak, maktab o'qituvchilari uchun esa professional repetitorlar bilan tajriba almashishga imkoniyat yaratiladi. O'qituvchilar o'rta adolatli raqobat yuzaga keladi. Bundan tashqari, maktablar ham saviyali o'qituvchilar uchun kurash olib boradi. Ishi va maoshidan ayrilishni istamagan o'qituvchilar o'z ustida ishlay boshlaydi. Ana shunda faqat munosibligina maktabda ishlay oladi. Repetitor mehnati ortidan qorni qappaygan direktorlarning rahmat eshitishi ham adolatdan emas-da.

Xullas, barcha o'z mas'uliyatini his qilgan holda ish tutsa, Xalq ta'lim tizimida, jumladan, Shofirkon tumani maktablarida ham o'qituvchilar o'rta adolatli raqobat, o'z mehnatidan moddiy va ma'naviy manfaatdorlik muhiti shakllanadi. Ota-onalarning maktabga ishonchi qaytadi. Tuman yana bir necha yillar davomida birinchilikni qo'ldan bermaydi. Zero, Shofirkon — akademik Ibrohim Mo'minov, professor Ibrohim Haqqul va O'zbekiston xalq shoiri, tarjimon Jamol Kamolbek buyuklarni tarbiyalagan maskan. Bu yerning xalqi och qolsa-da, yirtiq-yamoq kiysi-da, nima qilib bo'lsa ham farzandini o'qitadi. Biz umumta'lim maktablarida bu ta'riflarga munosib ta'limni yaqin yilllar ichida yo'lga qo'yishimiz zarur!

Guluro YUSUPOVA,  
O'zJOKU talabasi

# Sinfdan tashqari o'qishni to'g'ri tashkillashtiraylik

Badiiy asarni mutolaa qilish endigina savod chiqargan bolalar uchun ham zavqli mashg'ulot. Kitob tanlashda, avvalo, uning o'quvchi uchun zerikarli bo'lmasligiga e'tibor beriladi.



Boshlang'ich sinf o'quvchilari taqdim qilishga moyil va ta'sirchanligi yuqori bo'ladi. Sinfdan tashqari o'qish uchun mavzu tanlashda o'qituvchi bunga e'tibor berishi kerak.

Sinfdan tashqari o'qishni muntazam olib borish o'quvchilarda insoniy fazilatlar, go'zal axloq va ijobiy xarakterni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Nutq madaniyatini shakllantirish, fikrlarini ravon va mantiqan to'g'ri, mazmunli va ifodali bayon etishga odatlantirish, dunyoqarashini kengaytirishda sinfdan tashqari o'qishning ahamiyati katta. Muntazam mutolaasiz ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish mumkin emas.

Kichik sinflarda matn avval o'qituvchi namunali o'qib beradi. Badiiy asarni grammatik qonun-qoidalarga rioya qilib

o'qish orqali o'qituvchi asarning poetik va badiiy xususiyatlarini ochib beradi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Buning uchun o'qituvchi nutq texnikasini bilishi, o'quvchilarni nutq vositalariga oid texnik mashqlar bilan muntazam shug'ullantirib borishi maqsadga muvofiq.

Ifodali o'qish jarayonida nafas, ovoz va nutq a'zolari faol ishtirok etadi.

Chunki matn o'qiyotganda o'quvchining noto'g'ri nafas olishi o'rsinaz pauzalar qilishiga olib keladi. Buning oqibatida o'qilayotgan matn mantiqan buziladi, muallif maqsadi o'quvchiga to'g'ri yetib bormaydi. Fikr tushunarsiz bo'lib qoladi. Nutq vositalariga oid mashqlar usuli juda keng ko'lamli bo'lib, sinfdan tashqari o'qishni tashkil

etishdan oldin nafas, ovoz, intonatsiyaga oid mashqlar o'tkazish o'quvchilarda uchraydigan nutq a'zolari bilan bog'liq kamchiliklarni tuzatishda samarali yordam beradi. Nafas mashqining quyidagi turlarini o'quvchilar sevimli bajaradilar:

Dastlabki holat — gavda to'g'ri tutilib, oyoq tovonlari bir-biridan yelka kengligida ochiladi. Qo'llar oldinga cho'ziladi. Bir deganda tovon ko'tarilib panja uchida turiladi. Qo'llar ikki yonga ochiladi. Burun orqali chuqur nafas olinadi. Ikki deganda dastlabki holatga qaytadi va og'izdan nafas chiqariladi. Yoki o'quvchilar burundan chuqur nafas olib ichlarida 1 dan 10 gacha sanaydi va og'izdan nafas chiqariladi.

Lab, til, jag' mashqlari juda sodda, lekin o'quvchilar uchun qiziqarli. Bularga labni cho'chaytirish, tilni aylantirish, jag'ni aylantirish kabilar kiradi.

Nutq tovushlarining talaffuz me'yorini o'rgatishda unli tovushlar aniq-ravshan, urg'u bilan aytiladi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish uchun tanlangan matn o'qishdan oldin quyidagi talaffuz mashqlarni bajarish o'rindir:

• unli tovushlar mashqi:

*A-O-I-U-O'-E.*

• undosh tovushlar mashqi:

*P-B, K-G, T-D, S-Z.*

• undosh tovushlarga unli tovushlarni

qo'shib, bo'g'in hosil qilish:

*RI-RE-RA-RO-RO'-RU-RI.*

• qo'sh undoshli bo'g'inlar tashkil etish:

*FISSI, KEPPE, SARRA, GOBBO, SO'ZZO', BUFFU.*

• takrorlanuvchi undoshli bo'g'inlar: *TURP, KSERKS, KNEG, KENG, DRAPP, DRRR.*

Undoshlar mashqini o'tkazish jarayonida nafas va ovoza ham e'tibor beriladi, undoshlar o'zaro bog'lab talaffuz etiladi. Tezaytishlar ham bolani to'g'ri talaffuzga o'rgatadi.

Urg'u ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, u ta'kidlash, alohida e'tibor qaratish uchun xizmat qiladi. Urg'u so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, ma'noni to'g'ri va to'la anglashga yordam beradi. Ma'lumki, urg'u ilmiy adabiyotlarda leksik urg'u, dinamik, ritmik urg'u, mantiqiy urg'u, an'anaviy urg'u, psixologik urg'u kabi bir necha turga bo'lib o'rganiladi. O'qituvchi namunali o'qishda urg'uning barcha turlariga e'tibor berib o'qiydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga esa soddaroq tarzda, so'z urg'usi tushgan bo'g'indagi unli shu so'zning boshqa bo'g'inlariga qaraganda kuchliroq, cho'ziqroq talaffuz etilishi haqida tushuntiriladi. Boshlang'ich sinflarda asarni qayta hikoyalashtirish, ayniqsa, katta ahamiyat berish kerak. Chunki qayta hikoya qilib berish orqali o'quvchilarning asar voqealarini ketma-ketlikda bayon etish ko'nikmasi va so'z boyligi oshib boradi. Asarga, uning qahramonlariga munosabat bildirish, voqea va xatti-harakatlarni tahlil qilishi orqali o'quvchilarning mustaqil fikri, ijodiy tafakkuri kengayib boradi.

Sohibxon MAHMUDOVA,  
Uchko'prik tumanidagi  
17-maktab direktori

## Musiqqa fanida interaktiv usulni qo'llayman!

"Skarabey" texnologiyasini musiqqa darsida qo'llash yaxshi samara beradi. Chunki o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshirish va fikriy tajriba o'tkazish imkonini beradi.

"Skarabey" texnologiyasi o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya

o'quvchilarga mustaqil ravishda bilim sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarini aniqlashga yordam beradi.

### "SKARABEY" USULI:

*O'tilgan mavzularni takrorlab, mustahkamlash. Ikki guruhda ishlash.*

O'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi. Ularda bir nechta asar nomi yozilgan. Har bir guruh bir-biriga kartochkalarda yozilgan asar nomini aytmadan, kuylab yoki cholg'u asbobida chalib, qo'l harakatlari bilan ko'rsatib beradi. Guruhlar asar nomini topib, davom ettirishlari kerak. Asarlar nomini ko'proq to'g'ri topgan, ko'rsatgan, ijro etgan guruh g'olib deb sanaladi.

"Skarabey" usuli ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

Zafar TOYIROV,  
Yangibozor tumanidagi  
20-maktabning musiqqa  
madaniyati fani o'qituvchisi

### O'yin qoidasi

1-guruh:	2-guruh:
"Andijon polkasi"	"Bulbulcham"
"Yallama yorim"	"Boychechak"
"Ililla yor"	"Dilxiroj"
"Yor-yor"	"Ilg'or"

## Sinab ko'ring

### Ingliz tili darsida bahribayt

Har birimiz yoshligimizda bahribayt o'ynaganmiz. Hech bo'lmasa, eshitganmiz.

Aynan ingliz tilini o'rgatish jarayonida shu usuldan foydalanish haqida o'ylab qoldim. Faqat avvaliga she'r emas, shunchaki so'zlardan foydalandim. Bu o'yinni 2-sinfdan boshlab barcha sinf o'quvchilari bilan o'ynash mumkin. Avvaliga u yuzga vazifa sifatida bergan yangi so'zlardan foydalandim. Masalan, bir o'quvchi "apple" degan so'zni aytadi, ikkinchisi tezda e harfidan boshlanuvchi "eagle" so'zini aytishi mumkin. Shu tariqa sinfda faollik, kim ko'p so'z bilishini isbotlashga intilish kuchayadi.

Boshida faqatgina men bergan yangi so'zlarni yodlab kelgan bolalar bora-bora bahribaytda yanada faol bo'lish uchun qo'shimcha so'zlar topib kela boshladi. Shu tariqa bolalarda lug'atga ehtiyoj

tug'ildi. Hatto bir-biridan o'zib ketish maqsadida maxsus lug'at daftarchalari ham tushishga kirishdilar. Unda so'zlarni alifbo tartibida yozib, ko'proq so'z jamg'arishga ham urina boshladilar. O'yinda har safar har xil so'z ishlatilishi va yoddan aytilishi talab qilinadi. Albatta, eng oxirida qolgan o'quvchi g'olib bo'ladi. O'qituvchi g'olibni turli kitoblarni rag'batlantirib turishi mumkin.

Endigi rejam, bu usulni yanada takomillashtirib, yuqori sinf o'quvchilarida sinab ko'rish. Faqat ular shunchaki so'z emas, haqiqiy bahribayt, ya'ni ingliz tilidagi kichik she'rlardan foydalanishadi.

Dilafrozxon SULAYMONOVA,  
Bag'dod tumanidagi 2-maktabning  
ingliz tili o'qituvchisi

Jarayon

# “Mahallam maktabi obodmi?”

## Kuzatuv kengashining kuzatuvlari

Farzandi ta'limiga jiddiy e'tibor qaratgan ota-ona borki, o'zi yashab turgan hududdagi barcha maktablar muhiti, sharoiti bilan qiziqib turadi. Zero, hech birimizga sir emaski, bugun maktablardagi muhit, imkoniyatlar bir xil emas. Shu bois omma tilida “nufuzli maktablar” degan atama paydo bo'ldi.

Yashnobod tumanidagi 255-umumta'lim maktabi biz yashab turgan hudud o'quvchilarini qamrab olgan. Mazkur dargoh mana qariyb uch yildan buyon katta yangiliklarga yuz ochdi. Ilgari maktab kamquvvatli sanalar edi. 1100 o'ringa ega maskanda 956 o'quvchi tahsil olardi. Chunki maktabning nufuzi tushgan, ota-onalar farzandlarini uzoqdagi ta'lim muassasalariga berishgan edi.

Dilora Jo'rayeva rahbarligining ilk kunidan boshlab, maktab nufuzini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, malakali kadrlarni ishga jalb qilish haqida yangi rejalar ustida bosh qotira boshladi. Biz mahalladoshlar uning doim muhim ish ustida yozuv-chizuv bilan band o'tirgani, goh o'zi ham ustalarga qo'shilib, maktabning uyoq-buyog'ini ta'mirlab yurganini ko'rardik. Uning maqsadlari bugun ro'yobga chiqqan boshladi. Sa'y-harakatlari bilan o'quvchilar soni 1675 nafarga yetdi. Endi maktab 1,5 quvvatda ishlayapti. Biz ota-onalar bu dargohdagi har bir yangilikni xayrixohlik bilan qarshi oldik. Chunki bularning barchasi o'z hududimizdagi maktab sharoitini yaxshilash, ta'lim samaradorligini, maktab reytingini oshirish uchun qaratilgan, bu esa farzandlarimiz ertasi uchun juda muhim. Axir biz ota-onalarga ham farzandimizni uyimizdan ancha olisdagi maktabga yetaklab borish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Aslida, eng qulay maktab bu uyimizga yaqin bo'lgan

maktab hisoblanadi. Agar unda ta'lim sifati yaxshi bo'lsa, undan ham a'lo.

Maktabda dastlab darsdan tashqari ta'limga — fan va san'at, qo'l mehnati, sport to'garaklariga katta e'tibor qaratildi. Hatto boshqa maktablarda o'qiydigan o'quvchilar ham darsdan keyin bu yerdagi to'garaklarga qatnay boshlashdi. Bu o'z natijasini bera boshladi. Direktorning kadrlar masalasida qat'iy tartib-intizomni yo'lga qo'ygani, tajribali va malakali kadrlarni ishga jalb qilgani ko'plab ota-onalarning e'tiboriga tushdi. Maktabda harbiy sinflar, tijoriy (pullik) guruhlar tashkil qilindi. Ota-onalarning talab va takliflariga ko'ra chet tili va sport mashg'ulotlari soatlari ko'paytirildi. O'quvchilar uchun tushlik tashkil qilindi. Soat 16:30 gacha o'quvchilar maktabda mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Bu ishlaydigan ko'plab ota-onalar uchun qulaylik yaratdi. Bundan tashqari, maktabda professor Z.Ahadova nomidagi stipendiya tashkil etildi. “Yosh akademiklar” klubi ish boshladi.

Maktabda kuzatuv kengashi tashkil etilganidan buyon har bir jarayon, joriy etilayotgan yangiliklar kengash a'zolarining kuzatuvvisiz amalga oshirilmayapti. Biz — kengash a'zolari va maktab jamoasi har bir ishni maktabimiz nufuzini oshirish, o'quvchilarimiz uchun zarur va qulay shart-sharoit yaratish maqsadida musharaklik bilan faoliyat yuritib kelmoqdamiz.

Prezidentimizning 2019-yil 26-noyabr-

da qabul qilingan “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bizni maqsadlarimiz tomon yanada yaqinlashtirdi. Ayni kunlarda maktabimiz “Zamonaviy maktab” davlat dasturi asosida kapital ta'mirlanmoqda. Ta'mir jarayonlari uchun 7 milliard so'm mablag' ajratilgan. Ta'mirlash ishlari noyabr oyida boshlangan bo'lib, o'quvchilar hududdagi yaqin maktablarda saboqni davom ettirmoqda. Hozir ta'mirlashning oxirgi bosqich ishlari bajarilmoqda. Ta'mirlash ishlarining sifati va shaffof olib borilishi maktab kuzatuv kengashi tomonidan nazorat qilinayapti. Tom qismi, kanalizatsiya quvurlari, issiqlik tizimi, koridorlar va sinfxonalar zamonaviy talablar asosida ta'mirlanmoqda. Ikkita kompyuter xonasi, o'g'il va qiz bolalar uchun maxsus texnologiya xonalari, laboratoriya, kutubxona va zamonaviy o'quv xonalari, sport zal maxsus ko'rinishga keltirilmoqda.

Maktab binosi, o'quv xonalari mazkur davlat dasturi tufayli zamonaviy ko'rinishga ega bo'lmoqda, bu juda yaxshi, ammo... Ta'lim mazmuni-chi? U ham zamonaviy maktab talabiga javob beradigan tarzda tashkil etiladimi? Mana shu savol bilan maktab direktori Dilora Jo'rayevaga murojaat qilganimda u o'z rejalarni birma-bir so'zlab berdi:

— Keyingi qadam ta'lim sifatini ko'tarish, mazmunini boyitish. Buning uchun, avvalo, uch yildan ortiq malaka oshirish kurslariga bormagan va uzoq yillar mutaxassis bo'lib faoliyat yuritib kelayotgan o'qituvchilar to'yxati shakllantirildi va ularga A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda “Zamonaviy

o'qituvchi imiji” mavzusida maktab psixologlari, tajribali o'qituvchilar ishtirokida o'quv-seminarlar tashkil etilmoqda. O'qituvchilarni malaka oshirish kurslariga jalb qilyapmiz. Zamonaviy maktabimizda ota-onalar burchagini tashkil etmoqchimiz. U yerda I-sinf qabul qiluvchi o'qituvchilarning videodarslari jamlanmasi, to'garak javdallari va faoliyatini aks ettiruvchi videoroliklar o'rין oladi. Shuningdek, zamonaviy maktabda o'quvchilar yuqori sinfdanoq o'z yo'nalishtirishini belgilab olib, mustaqil izlanish olib borishlari uchun sharoit yaratiladi. Buning uchun binoning kirish qismi o'ng tomonidagi ochiq joyda innovatsion kutubxona tashkil etishni rejalashtirdik. Avvalo, kutubxona fondini qayta xatlovdan o'tkazdik, shunga qarab uni to'ldirib, boyitmoqdami. Elektron kitoblarni katalogini yaratyapmiz. Hozir kuni uzaytirilgan guruhlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish, chet tili, rus tili, sport to'garaklariga malakali mutaxassislarni jalb etish, maktab maxsus raqamli pul tushumlarini maksimal oshirish rejalarni ishlab chiqish, iqtidorli o'quvchilar bazasini shakllantirish va ularni malakali o'qituvchilarga birlashtirish, OTM laboratoriyalaridan hamkorlikda foydalanishni, radiouzel faoliyatini yo'lga qo'yish kabi rejalar ustida ishlayapmiz. Bularning barchasi maktabimiz foydalanishga topshirilganida amaliyotga joriy qilinadi va ziyo maskanimiz dizayn va mazmun jihatdan teng ravishda zamonaviy maktabga aylanadi.

Zahro YUNUSXO'JAYEVA,  
Maktab kuzatuv kengashining raisi

O'qituvchi minbari

# Ta'limni murakkablashtirmaylik

So'z ustasi Hojiboy Tojiboyevning beda o'rayotgan dehqon haqidagi latifasi bo'lardi. Bir tomonga o'rib qaytayotgan dehqonning ishini kuzatib turgan kishi: “Bedani yaxshi o'rayapsiz-u, faqat bir tomoningiz bo'sh qaytayapti-da. Shunga o'roqning ikkinchi tomoniga ham o'roq o'matsak, shunda ikki tomonlama o'rib ketaverardingiz...”, deydi. Xullas, o'rgatuvchining “u bo'lmayapti, bunday qilsak yaxshi bo'lardi” kabi nasihatlaridan zada bo'lgan dehqon oxiri “bo'ldi-yey” deb baqirib yuboradi.

Bugun ta'lim sohasida yuz berayotgan ba'zi o'zgarishlarni kuzatib, oxiri shu dehqonga o'xshab “portlab” ketmasak koshki edi, deb o'ylab qolaman. Masalan, o'tgan mavsumda abituriyentlarning aksariyat qismi uchun oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirish pullik bo'ldi. Bu kamlik qilgandek endi imtihon topshiradigan fanlar soni beshtaga

ko'paydi. Yetmagandek noto'g'ri belgilangan javoblarga jirim to'lash g'oyasini ilgari surishibdi. Kim biladi, test kunlari boshlanguncha yana qanday “ixtirolar” o'ylab topilarkan?

Ayting-chi, bunday murakkablashtirish kimga kerak? Bu g'oyalarni kim o'ylab topyapti? Bir paytlar test savollarining qiyinligidan, mantiqsizligidan

kuyingan domlamiz Omonulla Madayev “Bu savollarni farzandi yo'qlar tuzgan”, degandik matematikadan ham murakkablashib ketgan ona tilidan test savollari haqida. Shunday “innovatsiyalarni” o'ylab topayotganlar pedagogmi? Maktabda yoki institutda peshonasi terlab dars o'tganmikan? Sovuqlarda qo'llari qaltirib turgan o'quvchilarni ko'rganmikan?

Ko'plab maktablarda ta'lim samaradorligi oqsab turgan ayni vaziyatda maktabni tamomlab, qo'lga shahodatnomani olgan o'quvchi hech bir tayyorgarliksiz oliy o'quv yurtiga kirib ketadi, deb ayta olasizmi? Yo'q, bunday bo'lishiga o'zingiz ham ishonmaydiz. Shunday ekan, farzandlarini o'qishga kirgizish uchun avvallari ikkita fanga repetitorga berayotgan, pulini amallab to'layotgan ota-onalarning ahvoli

endi qanday kechadi?

Shu o'rinda yana bir savolni o'rtaga tashlasam: farzandini beshta fandan repetitorga berish ota-onaga necha pulga tushadi? Agar birdaniga ikki farzandi tayyorlanayotgan bo'lsa-chi? Bir abituriyent uchun beshta fanning o'zi shahar joylarda 800 000 – 1 200 000 atrofida bo'ldi. Yana farzandining yeyish-ichishi, kiyinishi, yo'lkarisini qo'shib hisoblasak, ancha-muncha mablag' bo'ladi. Qishloq joylarda shuncha miqdorda oylik oladiganlar qancha o'zi?

Bir qo'shningning to'rt farzandi bor. Kattasi 7-sinfda o'qiydi. Bilimi yaxshi, lekin bolaning ota-onasi ihsiz, bazo'r kun ko'radi. Bahorda kunlar isishi bilan shaharga qurilishga chiqib ketadi. Oylab uyida bo'lmaydi. Bir oyda 1 800 000 – 2 000 000 atrofida pul ishlab keladi. Bu mablag' esa

ro'zg'ordan ortmaydi. Haliyam qishin-yozin loy tepib, mol boqib yurgan qo'shnim abituriyentlarga sarflanadigan pul miqdorida bexabar...

Men o'zim bilgan bir oilani misol keltirdim, xolos. Endi aytgunchi, bunday oilalar respublikamizda qancha? Yiliga qancha-qancha maktab bitiruvchilari o'rta ta'limdagi bilimlarning o'zi bilan oliy o'quv yurtiga kirishning imkonsizligi bois na o'qishga kira oladi, na ishli bo'ladi. Ko'pchiligining maqsadi bitta: tezroq qo'lga pasport olish. Rossiya yoki Qozog'istoniga ishlash uchun ketish.

Hey, uni-buni o'ylab topayotganlar! Kundan kun bolalarimizni yangi murakkabliklarga duchor qilgandan ko'ra, ta'lim tizimini yaxshilashni o'ylasangiz, deb umid qilaman. Maktabning o'zida yaxshi bilim olgan, oliy o'quv yurtiga kirish uchun hech bir to'siqqa uchramagan, million-million xarajatga ro'baro' kelmagan bitiruvchi o'ziga hech qachon mardikorlikni ravo ko'rmaydi.

Azimjon MAMASHARIPOV,  
o'qituvchi

## Tajriba

## Mantiqiy fikrlashni o'rgatamiz

Boshlang'ich sinflar matematika kursi o'quvchilarda fikrlash faoliyati uchun keng imkoniyat yaratadi. Biroq bu imkoniyatlar o'z-o'zidan amalga oshavermaydi. Ularning amalga oshishi o'qituvchining ish usullariga, o'quvchilarni matematik bilimlarni o'zlashtirishga qanday yo'naltirayotganiga bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishning manbalaridan biri mantiqiy mashqlar tizimidir. Biroq bu topshiriqlar ularni bajarishda o'quvchilarning fikrlashi o'qituvchi tomonidan yetarli darajada nazorat qilinadigan va yo'naltirilgan bo'lsagina, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish vositasi bo'ladi.

Masalan, 1-sinfda predmetlar alomatlari haqida o'quvchilar tasavvurini faollashtiruvchi topshiriqlar tavsiya etiladi. Bu topshiriqlar bolalar tasavvurini mustahkamlash va chuqurlashtirishga imkon yaratadi.

1-topshiriq: a) olmaning shakli, rangi, ta'mi, soni haqida nimalarni aytish mumkin?



b) "Kim ko'p topadi?" o'yini.

O'qituvchi bolalarga biror predmetni ko'rsatadi va ularga shu predmet haqida so'zlab berishni taklif qiladi. Kim shu buyumning alomatlarini ko'proq aytib bersa, o'sha g'olib

bo'ladi.

Ikki xonali sonlarni o'qish va yozish malakasini shakllantirish uchun bolalarda bir xonali va ikki xonali sonlarning o'xshashlik va farq qilish alomatlarini aniqlashga va berilgan tavsifi bo'yicha sonlar va ifodalarni topishga doir quyidagi mashqlar tavsiya etiladi.

2-topshiriq: Har bir juftlikdagi sonlar nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan farq qiladi?

1 va 11      32 va 42  
73 va 37      35 va 4  
5 va 15      61 va 65

3-topshiriq: a) 5 va 1 raqamlari yordamida ikki xonali turlicha sonlarni yozing. Shunday sonlardan nechta yozish mumkin?

15, 51, 11, 55,  
b) 90, 30, 20, 70, 60 sonlaridan foydalanib sakkizta to'g'ri tenglik tuzing.

60+30=90      90-60=30  
90-30=60      30-20=70-60  
90-70=20      70+20=90  
90-20=70      70-30=60-20

Sabohat ASLONOVA,  
Kogon tumanidagi  
1-IDUMning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

## Til o'rganishning eng qulay va samarali usuli

Chet tilini o'rganishning kaliti — lug'at, ya'ni o'quvchining lug'at boyligi qancha ko'p bo'lsa u eshitgan yoki o'qigan ma'lumotini yaxshiroq tushunadi va shu bilan birga o'z fikrlarini og'zaki va yozma nutqda rang-barang ifodalay oladi.

O'quvchilarga yangi so'zlarni tanishtirishning bir qancha metodlari bor. Bular: rasmi va izohli ko'rgazmali materiallar, o'yinlar (lug'atli bingo, juftlikdagi o'yinlar), harakatli qo'shiqlar, grafikli organayzer, jadval, diagramma, so'z piramidalar, sxemalar, krossvord, skanvordlar va h.k.

Bugungi kunda har bir o'quvchida zamonaviy uyali aloqa vositasi bor. Unda qo'shiq eshitis mumkin. Mashhur qo'shiqlar orasida ingliz tilidagilari ham mavjud. Shuni inobatga olib men "Qo'shiqlarni tinglab, so'zlarni o'rganamiz" metodidan foydalanishni afzal bilaman.

O'tmoqchi bo'lgan dars mavzusiga oid so'zlar ko'p uchraydigan qo'shiq tanlaysiz. Agar bu mashhur qo'shiq bo'lsa nur ustiga nur. Avvalo, qo'shiq matnini qog'ozga chiqarib, eshitib tushunib olish mumkin bo'lgan so'zlarni o'chirib, yozish uchun joy tashlab ketasiz. So'ng o'quvchilarning matn bilan tanishib chiqishiga vaqt berasiz. Shu bilan qo'shiqni ikki yoki uch marotaba qo'yib eshittirasiz. So'ng qolib ketgan so'zlarni o'quvchilar bilan tekshirib, to'ldirasiz. Qo'shiq tarjima qilinadi. Shunda o'quvchilar qo'shiq ma'nosini, shu bilan birga yangi so'zlarni ham o'rganib olishadi. Oxirida qo'shiqni hamma birgalikda aytadi. Bu metod orqali o'quvchilarga til o'rgatishimiz bilan bir qatorda ko'tarinki kayfiyat ham ulashasiz. Oldindan tanish bo'lgan oddiy qo'shiqlarning musiqasidan foydalanib, yangi so'zlar ishtirokida matn yaratilsa ham yangi so'zlarni takrorlash hamda yodda qolishida qo'shimcha yordam bo'ladi. Misol uchun "Twinkle", "Twinkle Little Star", "The Wheels on the Bus", "Happy Birthday" qo'shiqlari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli va oson.

Nodira NORBOBOYEVA,  
M.Ulug'bek tumanidagi  
Profilni mehnat ta'limiga ixtisoslashgan  
umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

## Tavsiya

## Xalq og'zaki ijodi namunalari

## o'quvchi shaxsini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi

Adabiyot darsliklarida xalq og'zaki ijodi namunalari berilgan. Masalan, 5-sinf adabiyot darsligida maqollar, topishmoqlar, "Uch og'a-ini botirlar" va "Susambil" ertagi, 6-sinf adabiyot darsligida xalq qo'shiqlaridan namunalari keltirilgan.

7-sinfda "Ravshan", 8-sinfda "Kuntug'mish", 9-sinfda "Alpomish", 10-sinfda "Rustamxon", 11-sinfda "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidan parchalar berilgan. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ushbu mavzularni turli xil metodlarda, interaktiv usullarda o'quvchilarga yetkazishyapti.

Pedagogik tajribamda shunday voqeaga duch keldim. 6-sinfda adabiyot darsidagi "Xalq qo'shiqlari" mavzusi slayd, ko'rgazmali vositalar asosida o'rganildi. Darslikdagi ma'lumotlar tahlil qilinib, nazariy ma'lumotlar o'zlashtirildi. Keyin o'quvchilar guruhlarga bo'linib xalq qo'shiqlarini kuyib, mazmunini qayta hikoya qildilar. 1-guruh "Boychechak" 2-guruh "Chittigul" qo'shig'ini ijro etdi. Navbat 3-guruhga kelganida bir o'quvchining "Ustoz, onajon degan joyini xolajon deb o'zgartirsam maylimi?" deganini eshitdim. Hech narsa deya olmasdan, mayli kim qanday o'zgartirsa o'zgartira qolsin, deya javob berdim. Keyin bilsam o'sha qizning onasi undan yiroqda ekan. Shu payt men ham bolaligimga bir lahza bo'lsa-da qaytgim keldi. Afsus, onajonim meni eshitmaydi...

"Rollarga bo'lib o'qitish" metodini darsimga tatbiq qilganimda esa hech qaysi o'quvchim salbiy qahramon obrazini yoritishni istamadi. Xo'sh, buning sababi nima? Axir hayotda hamma ham bir xil emas-ku. Demak, angladimki, adabiyot nafaqat o'tmish tarixdan, ilmiy ma'lumotlardan bizga xabar beradi, balki bolalikdan qalbimizda chin insoniy tuyg'ularga xayrixohlikni shakllantiradi. Ezgu g'oyalar sari o'quvchi shaxsini shakllantirish bugungi kun o'qituvchisining muhim vazifasidir.

Saida ESAMURATOVA,  
Yangibozor tumanidagi

30-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

## Butun darsni maqol va topishmoqlar bilan o'ting

Matematika darslarida, ayniqsa, 1-sinf o'quvchilariga sanoq sonlar mavzusini tushuntirishda maqollar bilan matematik ta'limni milliy lashtirish mumkin. Masalan, "Ikki o'n besh — bir o'ttiz", "Sanamay sakkiz dema", "Yetti o'lchab bir kes" kabi tez-tez ishlatiladigan maqollarni masala yoki misol shakliga keltirish qulay. Oddiy mashqni maqollar orqali ifodalash o'quvchi xotirasiga yaxshiroq o'rinishadi. Yoki keng tarqalgan maqollarning birinchi qismi aytilib, ikkinchi qismi, ya'ni davomini topish ijodiy topshiriq sifatida berilsa, o'quvchilar maqolni davom ettirishga harakat qilishadi. Natijada bolaning ijodiy tafakkuri, og'zaki nutqi rivojlanadi. Ularda ona tilida xatosiz, chiroyli, ravon so'zlash ko'nikmalari shakllanadi.

Topishmoqlarda tabiat va jamiyatdagi jonli, jonsiz predmetlar, hodisalar nomi aytilmay, unga ma'lum bir tomon o'xshash bo'lgan boshqa predmet yoki hodisaning belgi xususiyati metaforik yo'l bilan qiyoslanadi. Topishmoqning asosi esa, albatta, uning javobi. Bola asos, ya'ni javobni topish uchun aqlan izlanadi, narsa va hodisalarining o'xshash tomonlarini taqqoslaydi. Buning natijasida bola topishmoq javobini topish bilan birga o'ziga notanish bo'lgan yangi ma'lumotni bilib oladi. Qolaversa, topishmoqda qiyoslangan narsa-predmetlarni nomlashda qo'llanilgan lug'aviy birliklar, so'zlarning rang-barangligi nutqning badiiylikni ta'minlaydi. Chunki topishmoqdagi o'xshatish, qiyoslash kabi badiiy vo-

sitalar tafakkur rivojiga katta hissa qo'shadi. Misol tariqasida quyidagi topishmoqlarni keltiramiz: "Yer tagida oltin qoziq" (sabzi); "Bir parcha patir, olamga tatir" (oy).

Topishmoqlarni ko'proq o'rganish natijasida bola o'z nutqida takror so'zlarni ishlatmay, sinonimlar izlab, fikrini badiiy shaklda ifodalay oladi. Bu esa, shubhasiz, uning so'z boyligini oshiradi. Maqollar singari topishmoqlardan ham barcha fanlar doirasida keng va unumli, samarali foydalanish mumkin. Jumladan, odobnoma darslarini o'tishda mavzuni topishmoqlar asosida yoritish qiziqarli va mazmunli kechadi.

Deyarli har bir topishmoq odob-axloq g'oyalarni tashiydi. Odobnoma darslarida bitta topishmoqning o'zi dars mavzusi bo'la oladi. Odob-axloq norma-

larining azaliy ifodasi aks etgan bunday topishmoqlar yoshlar xotirasida chuqurroq o'rinishadi va yaxshi ta'sir kuchiga ega bo'ladi: *Osmondan buyuk (maqsad), Bir to'kilsa qayta to'lmas (obro', nomus). O'zi farz, bebismillo (salom berish). O't emas, kuydirar, pichoq emas, so'ydirar (yolg'on so'z). Zarga sotilmas, Zo'rga topilmas (vaqt).*

Topishmoqlar qaysi fan doirasida qo'llanilmasin, u orqali ta'lim-tarbiyada, bilimlarni o'zlashtirishda yuqori ko'rsatkichga erishish mumkin. Chunki o'quvchilarning barchasida "sir" — jumboqni bilishga ishtiyoq kuchli bo'ladi.

Zamira HUSENOVA,  
Yashnobod tumanidagi  
244-maktab boshlang'ich  
ta'lim o'qituvchisi

## Nuqtayi nazar

# Dunyoga qarash — maktabdan

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga innovatsiyalar joriy etish keng tus oldi. Innovatsion kutubxona, innovatsion armatura, innovatsion bino, "aqli" shahar, "aqli" maktab, "aqli" tibbiyot, "aqli" qishloq xo'jaligi singari iboralarni tez-tez eshityapmiz. Shuncha o'zgarishlar bo'layotganda dunyoqarashimiz ham o'zgaryaptimi? Millatimizning, jamiyatimizning kushandasi bo'lgan eskicha yondashuvlardan voz kecha o'lyapmizmi?

Ta'kidlash o'rinliki, hozirgi paytda O'zbekiston aholisining mehnatga yaroqli aksariyat qismi xorijda, birinchi navbatda, Rossiya, Qozog'iston hamda uzoq xorijiy davlatlarda, jumladan, Janubiy Koreya, Turkiya, AQSh va Yevropa mamlakatlarida ishlamoqda. Ularning xorijga ishga borishi uchun turli sabablar bor. Birinchidan, xorijda ko'proq pul topish imkoni bo'lsa, boshqa tomondan, mamlakatimizda ish o'rinlarining yetishmasligidir.

Yoshlarimizning ish qidirib o'zga yurtlarga ketishi mamlakat iqtisodiyotiga, ishchining oilasiga moddiy yordam keltirayotgan bo'lsa-da, o'ziga xos ma'naviy tanazzulga ham sabab bo'lmoqda. Aksariyat yurtdoshlarimiz chet elda eng og'ir va past darajadagi ishlar bilan band. Ularning hammasi ham ilmiy ish qilish yoki chet el andozalarini o'rganish uchun ketgani yo'q. Yagona maqsad — pul topish. Puling ko'p bo'lsa, yaxshi yashaysan, sen bilan hisoblashishadi, degan fikr ham yurtlarimiz ongiga kun sayin singib bormoqda.

Chet elda, uzoq muddat bo'lgani bois o'zbek millatiga xos bo'lgan oilaviy qadriyatlar yo'qolib bormoqda. Afsuski, bugun internet sahifalarida ham yurtlarimizning shafqatsiz bo'lib ketayotganliklariga ko'plab misol topiladi. Pul uchun sotilayotgan go'daklar va ichki organlarini sotish uchun o'ldirilayotgan bolalar, mol-dunyo uchun dushmanga aylangan jigarlar, uy uchun ko'chaga quvib solingan ota-onalar, or-nomusini pullayotgan va "erkak"ka aylaniq qolgan ayollar, jinsini o'zgartirayotganlar, o'qituvchini kaltaklab, videosini tar-moqqa chiqargan o'quvchilar, bir yilga bormay ajrashib ketayotgan oilalar... Bularning barchasi ayrim o'zbek oilalarida erkaklarning yo'qligi tufayli yuzaga kelmoqda.

Yaxshi bolani ko'rsak, "otangga rahmat", yomon ish qilganini ko'rsak, "padaringga la'nat" deyimiz. Nega? Nimaga tarbiyani ona beradi, lekin rahmatni ham, la'natni ham ota eshitadi? Chunki ona tarbiyani o'z eridan, oilasining boshi, ustuni bo'lgan erkakdan oladi.

Yaqinda o'qib qoldim, xorijga ishlashga ketgan vatandoshimiz uyga qaytib topgan pullariga "Nexia" mashinasi olib qo'yib, yana xorijga ishlashga qaytgan ekan. Endigi borishida mashinani sotib, yig'gan pullarini qo'shib, "Gentra"ga aylantirib kelishni rejalashtirayotganmish. Maqsad uyda eng so'nggi rusumdagi mashina bo'lishimi? Bu kabi voqealarni eshitib ba'zida hayron qolaman. Albatta,

orzu-havas yaxshi, lekin, nazarimda, ni-mani orzu qilishni bilish kerakdek. Uyi-dan, bola-chaqasidan, vatanidan yiroqda, ne azoblar bilan topgan pulini qanday sarflashi ham muhim emasmi?! Mana shu bizdagi birinchi muammo.

Ikkinchi muammo — farzandlari to'yib, vitaminlarga boy ovqat yemaydigan, sayyoh sifatida olamni ko'rmagan, farzandining kamoli uchun, uning qo'shimcha o'qishi yoki sport to'garaklariga qatnashishi uchun mablag'ni tejab, shuning hisobiga dang'illama uylar qurayotganlar bor. Afsuski, bu ayrim kishilarda uchrayotgan holat emas, aksariyat yurtdoshlarimizning hayot tarzi, jamiyat dunyoqarashiga aylaniq qolmoqda.

Dunyoqarashimiz, hayotdagi qadriyatlariga nisbatan munosabatimiz o'zgar-mas ekan, har qanday boy davlat "narsaparast, hashamat quliga" aylangan xalqni to'ydira olmaydi.

Eng katta muammolarimizdan biri bu to'y-larimiz. Boy odam har qancha katta to'y qilsa ham o'z kuchi va imkoniyatlari doirasida qiladi. Lekin "shulardan nimam kam?" deb o'rtahol yoki kambag'al oilalar ham dabdabali to'y-lar qilib, so'ng yillar davomida qarz to'lab yoki qarz to'layman deb kasallik orttirayotganlar qancha. Bu yerda molaviy qashshoqlikdan ko'ra, ma'naviy qashshoqlik kuchliroqdir. Ota-onasining dabdabali to'y qilolmasligini ko'rib turgan farzandlar yig'i-sig'i va ota-onaga qattiq ta'sir qiladigan boshqa psixologik bosimlar orqali o'z-larining "boshqalardan kam bo'lmasliklarini" ta'minlaydigan bo'lgan.

Bizda to'y uchun qarz oladigan ota-ona farzandining bilim olishiga qarz olmaydi.

Yana bir muammomiz bu kera-gidan ortiqcha mehmondo'stigimiz. O'zimiz yemagan taomni, bolamizga ravvo ko'rmagan narsamizni mehmonga olib qo'yamiz. Bu holatni ham o'ylab ko'radigan payt keldi.

Navbatdagi muammo bu — ta'lim tizimidagi tarbiyaga oid muammolardir. Farzandlarimizga bog'chadan boshlab tarbiyachi, o'qituvchiga nisbatan hur-matsizlikni singdiradigan bo'lib qolyap-miz. Pul, mansab hamma narsani hal qiladi deb tarbiyalayapmiz.

Yaxshi bolani ko'rsak, "otangga rahmat", yomon ish qilganini ko'rsak, "padaringga la'nat" deyimiz. Nega? Nimaga tarbiyani ona beradi, lekin rahmatni ham, la'natni ham ota eshitadi? Chunki ona tarbiyani o'z eridan, oilasining boshi, ustuni bo'lgan erkakdan oladi.



Yuqorida aytib o'tilgan muammolar qachon boshlangan ekan, deya moziy-ga nazar soldim. Afsuski, bu holatlar kecha yoki yaqin o'tmishda yuzaga kel-magan, ildizlar uzoq o'tmishga borib taqaladigan ko'rinadi. Qachon-lardir dunyoni titratgan sohibqiron Amir Temur saltanati yemirilishi va bugungi kunda ham dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topa olmayotgani xalqimizning dunyoqarashidan emasmikan?

XX asr boshlaridayoq buyuk muta-fakkir Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasi-da o'z farzandi ta'lim-tarbiyasiga e'tibor bermagan otalar ham, yoshlik yillari takasaltang, ishyoqmas, maishatparast bo'yvachchalar davrasida o'tgan bolalarning ham hayoti fojia bilan tugashi mumkinligini ko'rsatgan. Shu orqali o'z davrining odamlarini, jamiyatni ogohlantirishga intilgan.

Shuningdek, Abdurauf Fitrat ham bu muammolarga to'xtalib, "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq", deydi.

O'zbekiston Qahramoni, davlatimiz madhiyasi muallifi Abdulla Oripov "Olomonga" she'rida "Qachon xalq bo'lasan, ey sen olomon!" deya bong urganida qanchalik haq ekanini yana bir bor his etmoqdamiz.

Farzandlarimizga buyuk allomalarimizning o'g'itlarini kengroq o'rgatishimiz va tegishli xulosalar chiqarishimiz zarur. Demak, asosiy vazifamiz xalqimiz, millatimiz ko'zini ochish, dunyoda va atro-fimizda sodir bo'layotgan turli voqea va hodisalarga munosib baho beradigan

shaxslarni tarbiyalash. Buning uchun muammolar 100 yillardan beri mavjud ekan, buni tuzata olmaymiz deb qarash emas, uni zudlik bilan o'zgartirish choralarini ko'rishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu yil 31-yanvar kuni ziyolilar bilan uchrashuvda maktab o'quvchilarining paxta terimi va boshqa turdagi ishlarga majburiy olib chiqilishi to'xtatilgani haqida gapirib, "Biz yuz yilgi tizimni ikki yilda olib tashladik. Birorta maktab o'quvchisi paxtaga borayotgani yo'q. Albatta, bu og'ir edi, lekin shu qarorni qabul qila oldik. Bo'lar ekan-ku", deya ta'kid-ladi. Demak, boshqa muammolarni ham zudlikda hal qilsa bo'ladi.

Buning uchun yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda avvalo ta'limni, birinchi navbatda, maktab ta'limini tubdan isloh qilishimiz, har bir o'quv fanini, har bir mavzuni o'qitishda dunyoqarashni shakllantirishga urg'u berishimiz kerak. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar o'quv fanlarini o'qitishda bundan samarali foydalanishimiz zarur. Endi an'anaviy faktlarni sanash, faqat yutuqlarimizni ko'rsatib, faxr tuyg'usini shakllantirishgina emas, xatolarimizni sanash, to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish, kelajakka qanday borishimiz kerakligini anglatish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida mustaqil dunyoqarash kompetensiyasiga ega bo'lgan o'quvchilarni kamol toptirish bugungi asosiy vazifadir. O'quvchining dunyoqarashini rivojlantirish har bir dars jarayonining, har bir mashg'ulotning asosiy maqsadi bo'lib qolmog'i lozim. Bu bilan ta'lim sifatini oshirishning, mazmunini boyitishning mezonini yaratiladi. Bu bilan mavjud pedagogik muammolarning silsilasida yechimini topishi lozim bo'lgan juda ko'plab savollarning javobi topiladi.

Jahongir MUSAYEV,  
Innovatsion rivojlanish vazirligi  
Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'limi boshlig'i

## KIMYO

1. Dunyodagi eng katta olmos 1905-yili Janubiy Afrikada topilgan "kullinan" olmosidir. Olmos uglerodning allotropik shakl ko'rinishi ekanini bilgan holda 300 g olmos tarkibidagi atomlar sonini hisoblang. ( $N_A = 6 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$ )

- A)  $1,5 \cdot 10^{25}$ ; B)  $1,5 \cdot 10^{26}$ ;  
C)  $3 \cdot 10^{25}$ ; D)  $3 \cdot 10^{26}$

2. Nisbiy atom massa birligi sifatida qabul qilingan etalonga mos keluvchi qiymatlarni ko'rsating.

- 1)  $m_A(\text{H})$ ; 2)  $(1/12)m_A(^{12}\text{C})$ ;  
3)  $m_A(^{12}\text{C})$ ; 4)  $1/N_A$ .  
A) 2, 3, 4; B) 2, 4;  
C) 2; D) 1, 2, 4.

3. Qaysi radikalning  $\frac{1}{2}$  moli tarkibidagi elementar zarrachalar (proton, elektron, neytron) yig'indisi  $59 \cdot N_A$  ga teng?

- A) fenil ( $\text{C}_6\text{H}_5$ );  
B) siklogeksil ( $\text{C}_6\text{H}_{11}$ );  
C) geksinil ( $\text{C}_6\text{H}_9$ );  
D) geksil ( $\text{C}_6\text{H}_{13}$ ).

4. Ekvimolyar nisbatda olingan ammiak va vodorod sulfid reaksiyasi natijasida 1,0 g modda ortib qolgan bo'lsa, bunda hosil bo'lgan tuz massasini (g) hisoblang.

- A) 1; B) 2;  
C) 3; D) 4.

5. Neon va argon iborat aralashmadagi neonning massa ulushi  $\frac{2}{3}$  ga teng bo'lsa, hajmiy ulushi nimaga teng?

- A)  $\frac{1}{5}$ ; B)  $\frac{2}{5}$ ;  
C)  $\frac{3}{5}$ ; D)  $\frac{4}{5}$ .

6. Agar elementlarning elektron konfiguratsiyalari ni ifodalashda pog'onalarining tartib raqamlari o'rniga energetik pog'onalarining harfi belgisidan foydalanilganda surma atomining elektron konfiguratsiyasi qanday bo'ladi?

- A) ...Os<sup>2</sup>Op<sup>3</sup>; B) ...Os<sup>2</sup>Op<sup>4</sup>;  
C) ...Ps<sup>2</sup>Pp<sup>3</sup>; D) ...Ps<sup>2</sup>Pp<sup>4</sup>.

7.  $^{224}\text{Fr} \rightarrow ^{208}\text{Tl} + X + \text{ye}$  ushbu yadro reaksiyasida 20 mmol alfa zarracha ajralgan bo'lsa, fransiy izotopining massasini (g) hisoblang.

- A) 1,12; B) 2,24; C) 3,36; D) 4,48.

8. Zarrachalarining o'lchami  $5 \cdot 10^{-9} \text{ dm}$  va  $5 \cdot 10^{-6} \text{ sm}$  bo'lgan dispers sistemalar qanday nomlanadi?

- A) chin dispers sistema; kolloid dispers sistema;  
B) chin dispers sistema; dag'al dispers sistema;  
C) kolloid dispers sistema; dag'al dispers sistema;  
D) kolloid dispers sistema; chin dispers sistema.

9. Rux plastinka qaysi eritmada tutib turilganda, uning massasi ortadi?

- 1) kumush nitrat; 2) marganes (II)-sulfat;  
3) xlorid kislotasi; 4) bariy xlorid.  
A) 3; B) 1, 4; C) 2, 3; D) 1.


10. 200 g 17 foizli kumush nitrat eritmasida qanday miqdordagi (mol) natriy metalli eritilganda 190 g eritma hosil bo'ladi?

- A) 0,4; B) 0,6; C) 0,8; D) 1,0.

11. 200 g litiy karbonat va 228,8 g aluminiy sulfat eritmalarini aralashtirildi. Bunda litiy ionining massa ulushi 2 marta, karbonat ionining mol miqdori 4 marta kamaygan bo'lsa, dastlabki eritmadagi moddalarning miqdorini (mol) aniqlang.

- A) 0,3; 0,1; B) 0,6; 0,2;  
C) 0,4; 0,1; D) 0,8; 0,2.

12. Quyida berilgan reaksiya tenglamasidagi barcha koeffitsiyentlar yig'indisini hisoblang.





- A) 46; B) 35;  
C) 24; D) 13.

13. 1 mol mis (II)-sulfat saqlagan eritma 3 F tok bilan elektroliz qilinganda katodda va anodda necha grammdan moddalar ajraladi?

- A) 64; 16; B) 65; 24;  
C) 66; 32; D) 66; 40.

14. Quyidagi ma'lumotlar asosida  $\Delta H_f$  ning qiymatini ( $\text{kJ} \cdot \text{mol}^{-1}$ ) hisoblang.

Kimyoviy bog'lanish	Bog'lanish energiyasi $\text{kJ} \cdot \text{mol}^{-1}$
H—H	432
Cl—Cl	240
H—Cl	428



- A) +101  $\text{kJ} \cdot \text{mol}^{-1}$ ; B) +147  $\text{kJ} \cdot \text{mol}^{-1}$ ;  
C) -101  $\text{kJ} \cdot \text{mol}^{-1}$ ; D) -147  $\text{kJ} \cdot \text{mol}^{-1}$ .

15. Natriy asetat kristallogidratni tarkibidagi vodorod atomlari soni kislorod atomlari sonidan 1,75 marta ko'p bo'lsa, kristallogidratning molyar massasini ( $\text{g} \cdot \text{mol}^{-1}$ ) hisoblang.

- A) 100; B) 118; C) 136; D) 154.

16.  $2\text{L}_a \rightarrow 3\text{D}_b$  ushbu reaksiya tenglamasi bo'yicha L moddaning dastlabki konsentratsiyasi 4  $\text{mol} \cdot \text{l}^{-1}$ . Reaksiyaning o'rtacha tezligi 0,05  $\text{mol} \cdot \text{l}^{-1} \cdot \text{s}^{-1}$  bo'lsa, necha sekunddan keyin moddalarning konsentratsiyalari tenglashadi?

- A) 4; B) 8; C) 16; D) 32.

17.  $A_{(a)} + B_{(b)} \leftrightarrow C_{(c)} + D_{(d)}$  sistemada moddalarning muvozanat holatidagi konsentratsiyalari ( $\text{mol} \cdot \text{dm}^{-3}$ ) tenglamaga mos ravishda 4, 3, 2, 6 ga teng bo'lgan sistemaga 1 mol B modda qo'shildi. Yangi muvozanat sistemadagi A moddaning konsentratsiyasini ( $\text{mol} \cdot \text{dm}^{-3}$ ) hisoblang (reaksiya hajmi 1000  $\text{cm}^3$  bo'lgan idishda olib borildi).

- A) 2,50; B) 2,75; C) 3,50; D) 3,75.

18. 100 g 6,0 % li nitrat kislotasi eritmasiga sulfat kislotasi eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadagi nitrat kislotasi va sulfat kislotaning massa ulushlari mos ravishda 5,0 % va 2,5 % bo'lsa, qo'shilgan sulfat kislotasi eritmasining foiz konsentratsiyasini hisoblang.

- A) 15%; B) 30%;  
C) 45%; D) 60%.

19. Kalsiy bromid eritmasining molyar konsentratsiyasi ham molyar konsentratsiyasi ham 2,0 ga teng bo'lsa, eritmaning zichligini ( $\text{g} \cdot \text{ml}^{-1}$ ) hisoblang. ( $V = 1$  litr)

- A) 1,1; B) 1,2; C) 1,3; D) 1,4.

20. 53 g  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0,1\text{SO}_3$  tarkibli oleum necha mol suvda eritilganda vodorod va kislorod atomlari soni teng bo'lgan eritma hosil bo'ladi?

- A) 1,15; B) 1,3;  
C) 1,45; D) 1,6.

21. 0,5 mol litiy gidrid qanday hajmdagi (ml) suvda eritilganda 5,0 % li eritma hosil bo'ladi?

- A) 239; B) 238; C) 237; D) 236.

22. 6,0 g litiy oksid qanday massadagi (g) suvda eritilganda to'yinagan eritma hosil qiladi?  $S(\text{LiOH}) = 96$

- A) 13,6; B) 20,4; C) 27,2; D) 40,8.


23. Metanga noma'lum alkan qo'shilganda uglerod atomlari soni 7 marta, vodorod atomlari soni 5 marta ortgan bo'lsa, alkanni aniqlang.

- A) etan; B) propan;  
C) butan; D) pentan;

24. Ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi uglerod atomlari soni o'zaro teng bo'lgan sikloalkan molekulasida birlamchi uglerod atomlari soni 6 ta bo'lsa, sikloalkaning brutto formulasi aniqlang.

- A)  $\text{C}_{12}\text{H}_{24}$ ; B)  $\text{C}_{16}\text{H}_{32}$ ;  
C)  $\text{C}_{18}\text{H}_{36}$ ; D)  $\text{C}_{24}\text{H}_{48}$ .

25. Quyida berilgan reaksiya tenglamasining o'ng va chap tomonidagi barcha atomlar yig'indisini aniqlang.



- A) 84; B) 102; C) 120; D) 138.

26. Aren molekulasida ( $\text{C}_n\text{H}_{2n-6}$ ) tarkibida 22 ta gibrid orbital bo'lsa, "n" ning qiymatini aniqlang.

- A) 7; B) 8; C) 9; D) 10.

27. Tozalik darajasi 80% bo'lgan kalsiy karbidning normal sharoitda o'lchangan 1,12 litr asetilen olingan bo'lsa, texnik karbidning massasini (g) aniqlang.

- A) 3; B) 4; C) 5; D) 6.

28. Metilbenzoat molekulasida tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajalari yig'indisini hisoblang.

- A) -10; B) -8; C) -6; D) -4.

29. 7,0 g urotropinni (geksametilentetramin) yondirish uchun necha mol kislorod sarflanadi?

- A) 0,45; B) 0,55; C) 0,9; D) 1,1.

30. Brutto formulasi  $\text{C}_8\text{H}_{11}\text{N}$  bo'lgan piridin gomologining molekulasida bitta radikal saqlovchi barcha izomerlaridagi birlamchi uglerod atomlari sonini aniqlang.

- A) 6; B) 9; C) 19; D) 22.

Tuzuvchi: Ma'ruf TONGOTAROV.

## "Bo'sh o'zlashtiruvchi" dan "a'lo" baholar sari



Maktab yoshidagi bolaning aqliy, jismoniy va psixik o'sishida biror jiddiy o'zgarish, nuqson bo'lmasa dastur materialini to'la o'zlashtira oladi. Bolalarning xarakteri, xususiyati, ruhiy holati, berilgan savollarga javob berayotganda ovoz ritmlari, nutqi e'tiborga olingan holda ularni guruhlariga ajratish mumkin.

Ko'pincha ota-onalari tomonidan barcha injiqliklariga quloq solinib, erka-tantiq qilib o'stirilgan bolalarning nutqida kamchiliklar seziladi. Ayrim bolalar qattiqqo'l ota-onalaridan dakkii yeb o'rganliklari sababli kaltak va haqoratlariga suyanib qolgan bo'ladi. Ba'zi bolalarning esa ota-onalari bolasi nisbatan jiddiy va talabchan bo'lishgan. Bunday o'quvchilar hozir-

javob va tirishqoqliklari bilan ajralib turadi. Dars jarayonida o'quv fanini o'zlashtiruvchi bo'lgan o'quvchining kayfiyati, qiziqishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy va kasbiy qobiliyati kabi xususiyatlar yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyati qay darajada ekanligini fan o'qituvchisi 3-4 dars o'tishi bilanoq tezda ajratib ola-

di. Chunki bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi kunlik joriy nazorat shartlarini bajarishda tengdoshlaridan ortda qolib ketadi. Shunday paytda ularga bir necha marta individual tushuntirish va yengilroq topshiriqlar beriladi. Shunda ham yaxshi o'zlashtirilmasa bunday o'quvchilar sinfda "bo'sh o'zlashtiruvchi" o'quvchilar ro'yxatiga olina-di. Chunki dars vaqti cheqalaralangan. Berilgan 45 daqiqa davomida sinfdagi o'quvchilar jamoasiga bir xil ma'lumot berish talab etiladi. Dastlab "bo'sh o'zlashtiruvchi" o'quvchining ota-onasi bilan suhbat olib boriladi. Maktab psixologi

ko'rigidan o'tkaziladi. Sabablar o'rganiladi.

"Bo'sh o'zlashtiruvchi" o'quvchilar bilan ishlashda darsdan tashqari vaqtda, ko'proq darsdan so'ng yakka tartibda ishlashning o'rni katta. Avvalo, o'quvchi bilan do'stona munosabat shakllantiriladi. Bugungi darsda o'tilgan mavzu tushuntiriladi. Mavzu asosida topshiriqlar beriladi. Mustahkamlash uchun savol-javob o'tkaziladi. Uyg'a berilgan topshiriq ham birgalikda bajariladi.

Kelgusi dars jarayonida foal o'quvchi bo'lishi uchun bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga kel-

gusi dars materiallaridan ayrim ma'lumotlar beriladi. Ertangi darsda yangi mavzuni tushuntirish yoki mustahkamlash vaqtida shu ma'lumotni aytasan yoki shu topshiriqni bolalarga bajarib ko'rsatasan, deb tushuntiriladi. Bu narsa bolaning o'ziga ishonchini orttiradi.

Odatda quyi sinf o'quvchilariga o'yin qaroq bolalar deb qaraladi. Mana shu o'yin qaroq bolalarda juda katta zehni va kuchli sezgi bor. Hamkasb ustozlarning shu katta zehni kichik o'quvchilarimizni tarbiyalashdagi muhim ishlarida sabr, iroda, omad tilayman.

Abdujabbor ISMOILOV,  
Boysun tumanidagi  
34-maktabning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi



Yozish uchun ishlatiladigan, qora, yaltiramaydigan yumshoq grafit va shishani kesuvchi yaltiroq, shaffof, qattiq olmos aynan bir xil uglerod atomlaridan tarkib topgan. Nima uchun bu ikki, tarkibi bir xil moddalarning xususiyatlari bunchalik farqlanadi?

## Uglerod, temir, muz va boshqa moddalarning necha turini bilasiz?

Qatlamli grafit panjarasini eslang: uning har bir atomi uch yaqin qo'shniga, olmos panjaraning har bir atomi to'rt yaqin qo'shniga ega. Ko'rinib turibdiki, kristallar xususiyatlari ular atomlarining o'zaro joylashuvi bilan ham aniqlanadi. Grafitdan ikki-uch ming darajagacha o'ta yuqori haroratga bardosh beruvchi tigellar yasaladi, olmos esa 700° C darajadan yuqori haroratda yonadi; olmosning solishtirma og'irligi 3,5, grafitning solishtirma og'irligi — 2,3 ni tashkil qiladi; grafit elektr tokini o'tkazadi, olmos o'tkazmaydi...

Bunday turli kristallarga ega bo'lish xususiyati faqat uglerodda mavjud. Deyarli har bir kimyoviy element, har qanday kimyoviy modda bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Temirning olti xil turi mavjud.

Haroratning bosimga bog'liqlik diagrammasini muhokama qilaturib, kristallarning har xil turi haqida subhatlashdik va qattiq jismlarning yagona oraliqini chizdik. Bu oraliq esa juda ko'p moddalar uchun xos, ularning har biri qattiq jismining ma'lum bir sinfga mos keluvchi yoki muayyan qattiq fazaga (berilgan kristall o'zgarishi) qismiga bo'linadi.

Me'yordagi bosimda qizil oltingugurt sariqqa aylanishi uchun harorat 110° C darajadan past bo'lishi kerak. Bundan yuqori to'ri erish nuqtasigacha bo'lgan haroratda atomlarning joylashish tartibi qizil oltingugurtga xosdir. Harorat pasaysa, atomlar tebranishi kamayadi va 110° C darajadan boshlab tabiat atomlar joylashish tartibining ancha qulay usulini topadi. Bir kristalning boshqa kristalga aylanishi sodir bo'ladi.

Oltita turli muzga hech kim nom topa olmagani. Ularini shunday atashadi: muz bir, muz ikki, ... , muz yetti. Qanday qilib yetti, axir olti xil turi bo'lsa?

Gap shundaki, muz to'rt takroriy tajribalar davomida aniqlanmagan. Agar nol darajaga yaqin haroratdagi suv 2000 ga yaqin atmosfera bosimi ostida muz besh, 6000 ga yaqin atom bosimi ostida muz olti paydo bo'ladi. Muz ikki va muz uch nol darajadan past bo'lgan haroratda barqarordir.

Muz yetti — qaynoq muz; u qaynoq suvni 20000 atm. gacha bosim ostida siqilganda vujudga keladi. Oddiy muzdan tashqari, barcha muzlar suvga nisbatan og'irroq. Normal sharoitlarda olingan muz g'ayrioddiy alomatlariga ega, aksincha, normal bo'lmagan sharoitlarda olingan muz tabiiy alomatlariga ega.

Biz aytamizki, har bir kristall o'zgarishlarga muayyan mavjudlik maydoni xosdir. Biroq, shunday bo'lsa, qanday qilib grafit va olmos bir xil sharoit ostida mavjud bo'lishi mumkin?

Bu kabi oddiy bo'lmagan holatlar kristallar dunyosida juda ko'p uchraydi. Begona sharoitlarda yashash qobiliyati, kristallar uchun deyarli bir qoida hisoblanadi. Agar suyuqlik bo'g'inini begona mavjudlik maydoniga o'tkazish uchun turli usullarga murojaat qilish kerak bo'lsa, kristallar ularga tabiat tomonidan ajratilgan doirasida qoladi.

Kristallarni yuqori darajada sovutish ekstremal taranglik bilan tushuntiriladi. Sariq oltingugurt 95,5° C daraja haroratda qizil oltingugurtga aylanishi kerak. Agar uni ko'proq yoki kamroq tezlikda isitib yuborsak, o'zgartirish nuqtasidan "sakrab o'tib" haroratni oltingugurtning erish darajasi 113° C ga yetkazib qo'yamiz.

O'zgarishning haqiqiy haroratini kristallarning bir-biriga yaqinlashishi bilan aniqlash juda oson. Agar ularni bir-biriga ustma-ust zich taxlansa va 96° C daraja harorat berilsa qizil oltingugurt sariq oltingugurtning shimib yeydi, 95° C daraja haroratda esa sariq oltingugurt qizil oltingugurtning yutib yuboradi. "Kristall-suyuqlik" o'tishdan farqli ravishda "kristall-kristall" o'tish odatda haddan ziyod sovutishda va haddan ziyod isitishda sekinroq sodir bo'ladi.

Ba'zi hollarda moddalarning shunday holatlariga ham duch kelamizki, aslida ular butunlay boshqacha haroratlarda yashashi kerak bo'lgan.

Harorat 13° C darajagacha tushirilganda oq qalay kulrang qalayga aylanishi kerak. Biz odatda oq qalayni ko'proq ishlatamiz va bilamizki, uni qishda ishlatib bo'lmaydi. U 20–30 darajagacha sovutishga bardosh bera oladi. Biroq qahraton qish sharoitida oq qalay kulrangga aylanadi. Buni bilmaslik oqi-


batida 1912-yili ilmiy tadqiqotchilarning shimoliy qutbga qilgan ekspeditsiyasi barbod bo'lgan. Ekspeditsiya tomonidan olingan suyuq yonilg'i, qalay bilan kavsharlangan idishlarga solingan edi. Qattiq sovuq oqibatida oq qalay kulrang kukungacha aylangan, idishlar bo'linib ketib, yonilg'i to'kilib ketgan. Oq qalayda kulrang dog'larning paydo bo'lishini bejiz "qalay o'lati" deb atashmaydi.

Oltiingurgurt kabi 130° C darajadan biroz past haroratda agar oq qalaydan yasalgan buyumga kulrang turidan bir zarra tushib qolsa ham oq qalay kulrang qalayga aylanishi mumkin.

Bir xil moddaning bir necha xil turi mavjudligi va ularning o'zaro almashinishining saqlanib qolishi texnika uchun katta ahamiyatga ega.

Xona haroratida temir atomlari kub panjara hosil qiladi, unda atomlar kub uchlaridan va markazidan joy oladi. Har bir atom 8 tadan qo'shniga ega bo'ladi. Yuqori haroratda temir atomlari yanada zichroq o'ram hosil qiladi. Har bir atom 12 tadan qo'shniga ega bo'ladi. Qo'shni atomlari 8 tadan bo'lgan temir yumshoq, 12 tadan bo'lganlari qattiq bo'ladi.

Demak xona haroratida ikkinchi turdagi temirni olish mumkin ekan. Bu toblash usuli metallurgiya sanoatida keng qo'llaniladi. Toblash ancha oson amalga oshiriladi — metall buyum qizarguncha qizdiriladi, keyin esa suvga yoki yog'ga solinadi. Sovush shunchalik tez sodir bo'ladi, yuqori haroratda barqaror tuzilishga aylanishga ulgurmaydi. Shunday qilib yuqori haroratli tuzilish ularga xos bo'lmagan sharoitlarda cheksiz uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin; barqaror tuzilishga qayta kristallanishi ancha sekin, sezilmaydigan ravishda kechadi.



Grafitdan ko'rinib turibdiki, bosim yoki haroratni o'zgartirib yoki bu aylanishlarga erishadilar. Ko'pgina hollarda kristalning boshqa kristalga aylanishi birgina bosimni o'zgartirishda ham kuzatiladi. Shunday usul bilan qora fosfor olingan. Grafitni olmosga aylantirish, bir vaqtning o'zida yuqori haroratni va katta bosimni qo'llash bilangina amalga oshirilgan. Rasmda tajribadan olingan natijalarga asoslanib misol tariqasida uglerod uchun temperaturaning bosimga bog'liqligi diagrammasi ko'rsatilgan. Bunda ko'rinishicha, o'n ming atmosfera bosimidan past bosimda va 4000 K dan past haroratdagi barqaror turlanish grafitga xos.

Shunday qilib olmos begona sharoitlarda yashaydi, shuning uchun uni qiyinchiliksiz grafitga aylantirish mumkin. Ammo amaliy qiziqish teskari masalani qo'yadi. Grafitni olmosga aylantirishga faqatgina bosimni ko'tarib erishib bo'lmaydi. Qattiq holatda davriy aylanish sodir bo'ladi, ammo juda sekin. Holat diagrammasi ko'rinishi to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi: bosimni ko'tarish va bir vaqtda qizdirish. Shunda biz (diagrammaning o'ng burchagidagi) eritilgan uglerod olamiz. Uni yuqori bosimda sovutib, olmos oraliqiga tushishimiz kerak.

Bunday jarayonning amalda imkoni borligi 1955-yilda isbotlangan. Hozirgi vaqtda esa bu muammo texnik hal qilingan.

Baxshillo OLIMOV,  
O'zPFITI dotsenti,  
fizika-matematika fanlari nomzodi

## Qanday qilib yaxshi o'qituvchi bo'lish mumkin?

45 daqiqa. Bu vaqt kashfiyot uchun yetarli fursat. Butun dunyoda o'qituvchiga nisbatan kashshof, ya'ni kashfiyotchi degan ta'rif ishlatiladi.



Yaxshi o'qituvchi bo'lish dunyodagi eng qiziqarli va sharafli ishdir. Ammo kimki o'z kasbini sevmasa, bu faoliyat faqatgina charchoq va stressni taqdim etadi.

### NAMUNA BO'LING

O'quvchilaringiz sizni "super qahramon" sifatida ko'rishlari juda muhim. Esingizda bo'lsin, ular doim sizga hayrat bilan boqadi va shuning uchun sizga taqlid qilishga harakat qiladilar. Agar qo'pol bo'lsangiz, ularning xatti-harakatlarida ham qo'pollik namoyon bo'ladi. O'quvchilar sizni ishonchli odam sifatida ko'rishlari va siz ko'rsatgan yo'ldan borishlari sinalgan haqiqatdir. Har qanday yoshda ham shogirdlar o'zlari ishonadigan, ularni qoidadiradigan va ergashtira oladigan insonga muhtoj.

### SHAFQATLI BO'LING

O'z o'quvchilari bilan mustahkam munosabatda bo'lgan va g'amxo'rlik ko'rsata olgan o'qituvchi yaxshi o'qituvchidir. O'quvchilar muomalali, g'ayratli va bag'rikeng ustoz bilan bemalol muloqotga kirisha oladilar. Darsdan so'ng qo'shimcha mashg'ulot yoki maktab tadbirlarida ishtirok etish bilan o'zaro yaqinlikni his ettirish mumkin. Shu tariqa o'quvchilarda maktabga sadoqat ham shakllantiriladi.

### BA'ZI ASOSIY QOIDALARNI O'RNATING

O'quvchilar rioya qiladigan 3–5 qoidaga ega bo'ling. Ushbu qoidalar buzilgan taqdirda chora ko'rinishini ular bilishlari lozim. Sinf uchun asosiy qoidalarni birgalikda muhokama qilish va o'quvchilar fikrini yozdirish yaxshi natija beradi. Masalan, siz qalirayotganda jim bo'lish, barchani hurmat qilish va hokazo qoidalar...

### INDIVIDUALLIK VA TASHABBUSKORLIK

Ta'limning eng katta maqsadi "Qanday qilib biz shaxslarni o'qitaymiz?" degan savolga javob topish, axborot va texnologiyalar davri tamoyillariga amal qilishdir. DTS talablariga muvofiq, o'quv dasturida belgilangan mavzuni agar o'qituvchi xohlansa, juda qiziqarli, ta'sirchan va sinfdagi barcha o'quvchiga tushunarli, ya'ni o'zlashtirish uchun oson va qulay tarzda talqin etishi mumkin.

Darsning to'g'ri didaktik va texnik jihozlanishi maqsadlarga erishishning asosiy shartidir. Ko'ngazmali qurollar, tarqatma materiallar, AKT ishlanmalari — bular darsning masallig'lar. Yana bir gap. Darslikdan tashqari manbalardan olinib, taqdim etiladigan ma'lumotlarni izlashdan, topishdan naf katta.

### O'ZINGIZNI QADRLANG

Bugun o'qituvchi o'z shaxsiyatini va xavfsizligini qadrlashi muhim. Jamiyatda obro'li ustozlarga obro'li shogirdlarni yetishtira oladilar. Ustozning kayfiyati, muomalasi, yurish-turishi, o'quvchilarning bilim olishga ishtiyoqlarini qo'llab-quvvatlab turishi, rag'batlantirishning turli usullaridan foydalanish sirlarini egallaganligi ko'p hollarda dars sifati va samarasiga bevosita ta'sir qiluvchi omil sanaladi. Hatto, kiyinish, ko'rinish ham ayrim holatlarda saboq mazmuniga salbiy ta'sir etishi mumkin. Darsga tayyorgorlik jarayonida arzimmasdek ko'rinadigan shunday unsurlar ham goho katta ahamiyat kasb etishi tajribadan ma'lum.

Asila TURDIYEVA,  
Qarshi tumanidagi 28-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

So'z tarixi — o'z tariximiz

# Bobolar dasturxonini

Oldingi maqolamda tarix qatlamlari haqida yozgandim. Bu qatlamlar hatto yegan ovqatimiz, dasturxonimizda aks etishini aytgandim. Bugun dasturxoniga urg'u beramiz.

Ovqatlanish xalqlarning maishiy hayoti, gastronomik ehtiyojlari, ma'naviy hayotini aks ettiradigan muhim madaniy unsurdir. Dasturxonimizdagi taom, birinchidan, atrofimizda nima ekilishi, nima boqilishini, qaysi davlatlar bilan aloqa qilib, nima olib kelishimizni, ikkinchidan, jamiyatdagi "ovqatlanish modasi"ni ko'rsatadi.

Qolaversa, muayyan xalq, jamoat iste'mol qiladigan taomlar turli davrlardan darak beradi: osh qilishni o'zbeklar bir necha asr muqaddam o'rgangan bo'lsa, kartoshkali taomlar — XX asr mahsuloti. Qovun har doim bo'lgan, lekin ananasga endi o'rganyapmiz.

Dasturxonimizdan joy oladigan taomlarga ko'z tashlab, eng qadimiy plastni ajratib olishga harakat qilamiz: 2,5 ming yillar oldin, hali turkiy qabilalar ko'chmanchi hayot kechirganida, fors tili bilan yuzlashmaganida nima ovqatlar tanovul qilgan? Qanday mevalar yegan?

Buni aniqlashning yo'li bor: oshxonaga oid eng eski so'zlam, eski gastronomik terminologiyani ajratib olish. Bunda bizga yozma manbalar qatori etimologiya yordam beradi: eng eski so'zlar sof turkcha, keyingi tushunchalar odatda boshqa tillardan o'zlashgan bo'ladi. Keling, shu asosda eng eski plastni ajratib olishga harakat qilamiz.

Ammo oldin bir masalaga oydinlik kiritib olaylik: praturk tilida gapiruvchi eng eski urug'lar ko'chmanchi bo'lgan.

## KO'CHMANCHILIK YO'VOYILIKMI?

Kimlardir ko'chmanchilar dehqonchilik bilan shug'ullanmagan deb o'ylaydi. Ko'chmanchi sivilizatsiya asoslaridan bebaxar, ko'chmanchilik poda haydab ketaverish deb o'ylaydiganlar hatto olimlar orasida ham talay, afsuski.

Aslida ko'chmanchilik tartibli va sermahsul sivilizatsiyadir. Ko'chmanchilar shunchaki tabiiy sharoitga moslashib, mavsumiy ravishda u yerdan bu yerga ko'chib turishgan: qishda qaysidir hududda, bahorda yana qayerdadir yashash, podani boqish, oziq-ovqat yetkazish imkoniyati bo'lgan. Yashab turgan hududlarida ular poda boqibgina qolmay, dehqonchilik qilgan, ro'zg'orga zarur ashyolarni yasagan, kiyim tikkan, gilam to'qigan va h.k.

Hozir ham chekka hududlarda qishda hovli burchagidagi tor xonalarga (isitish osonligi bois), yozda salqin dala hovliga ko'chib o'tiladi. Gazi, chirog'i yo'q, ammo Toshkentda qarindoshi bor odamlar poytaxtga vaqtinchalik kelib turadi. Ko'chmanchilik xuddi shu moslashuvchanlikning kengroq ko'rinishidir. Hali ulkan shaharlar qurib tashlash, baland binolarni isitish, kimyoviy yo'l bilan oziq-ovqat ishlab chiqarish imkoniyati yo'q edi, lekin tirikchilik yuritish kerak edi.

Anchayin mobil bo'lgan ko'chmanchilar odatda o'troq jamiyatlarga nisbatan ko'proq, boyroq, zamonaviyroq bo'lgan. Buyuk davlatlarning aksariyatini o'tmishda ko'chmanchilar yaratgani bejiz emas.

Yana bir qiziq fakt — ko'chmanchilarning oziq-ovqat ratsioni o'troq jamoalari kidan ancha boy va xilma-xil bo'lgan.

Ko'chmanchilar yaxshiroq daromadga ega bo'lgan va baquvratroq ovqatlanagan. Ovqatlar xilma-xilligi o'troq madaniyat, aniqrog'i, saroy oshxonasi bilan bog'liq bo'lsa ham, oddiy o'troq dehqonlarning ratsioni juda sodda, asosan donli ekinlardan iborat edi. Chiroyli, totli taomlar shohlar, xonlar, amaldorlar va boylar oshxonasida buyurtma asosida tayyorlanardi.

## EKINCHILIK

Turklar qadimdan donli ekinlar ekan. Donli ekinlarni anglatuvchi qadimiy universal so'z tarq'dir. Bu so'z turkcha tar — "yerga ishlov bermoq" o'zagidan kelib chiqqan. Yerga sochish yo'li bilan ekiladigan donli ekinlar dastlab shu nom bilan yuritilgan.

Keyinchalik donli ekinlar turi ko'paygan. Ularga alohida nomlar berilgan. Masalan, arpa, yasmuq, bog'day (bodaqay, tögü), suli. Donli ekinlar maydalab, un yoki dalqan'ga aylantirilgan, undan inqil (xamir) yasali, non (ekmāk, kömāç, çörāk, yupqa) yopilgan. Shuningdek, suyuq va quyuq ovqatlar tayyorlash (ükra, kürtük), yilqining qornini to'ydirish mumkin edi.

## MEVA-SABZAVOT

Qadimgi turklarda bog'dorchilik ham o'ziga yarasha rivojlangan. Shuningdek, o'rmonlardan reza meva terish, yovvoyi mevalar tanovul qilish odat bo'lgan.

Arxaik turkiy tilda tiklanadigan bir qancha meva nomlari bor. Qolganlari boshqa tillardan, masalan, fors tilidan kirib kelganiga qaraganda, ancha keyin boshqa xalqlardan o'zlashtirilgan. Eng qadimgi meva nomlari esa quyidagilar: ürtük (erük), arva (behi), çiya(olcha), qağun(qovun), almıla(olma), üzüm; reza mevalardan: böldirgän(maymunjon), yeğäläk (qulupnay, yer tuti), qarağat; shuningdek, yangaq ham terishgan.

Sabzavotlar va poliz ekinlaridan: soğan (piyoz), sarımsaq, turp, şalgām (yana bir nomi — qağmur), qabaq.

## OVCHILIK

Ovchilik ko'chmanchi aholi tirikchiligining muhim manbalaridan biri bo'lgan: u payti ov qilinadigan hayvon ko'p, odamlar jamoalari esa kichkina bo'lgan, ovlangan o'lja ancha vaqtga yetgan.

O'lja umumiy qilib ikki nom bilan yuritilgan:

1. käyik — umuman "yovvoyi", "yovvoyi o'lja" degani; keyinchalik kiyik shaklida konkret tuyoqli o'ljani anglatib boshlagan, lekin ba'zi turkiy tillarda "yovvoyi" ma'nosida ishlatiladi, masalan, no'g'aychada: kiyik kiçi — "yovvoyi echki", kiyik biyday — "yovvoyi bug'doy".

2. aq — ba'zan yovvoyi qushlarni, ba'zan umuman o'ljani anglatadi. Ovchilar qadimgi uyg'ur hujjatlarida anqi deb yuritiladi.

Tuyoqli o'ljalari: buğu, sigün (kiyik degani, sigir bilan o'zakdosh deydishdi), büngäk, soqaq, ivıq, älik, qulmuz, bulan, yağran(jayron), täkä (yovvoyi echki), qulan (yovvoyi eshak), quralay.

Qushlar: qaz (g'oz), yunqaz (yuğaq, o'rdak), quğu (oqqush), ebürdek (o'rdak), anğıt (o'rdak turi), qaşqaldaq, käklik, büldürçin (qirg'ovul).

Tabısqan (quyon) ham yeb turishgan.

## BALIQCCHILIK

Qadimgi turklarda baliqchilik yaxshi rivojlangan. Buni baliq turlari ko'pligidan bilsa bo'ladi. Bizga juda yaxshi tanish bo'lgan, rus tilidan kirib kelgan "sazan" so'zi ham aslida turkchadir. Qadimgi turklar baliqning bir-biriga yaqin bir necha turini sazağan deb atagan, bu so'z keyinchalik "sazan"ga aylangan. Sazağan so'zining ikkinchi ma'nosi — ajdar. Qadimgi turk mifologiyasida croniy xalqlarning ajdarhosiga o'xshash jonivor suvda istiqomat qilgan va sazağan deb yuritilgan.

Boshqa baliq turlari: çabaq (chavoq), yayın (laqqa), çortan, alabuğa, bel (losos), säbrük (stürik, osyotr, baqra).

## CHORVACHILIK

Chorva, yilqi qadimgi turklarning asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lgan, suruv va podalar moddiy boylikning katta qismini tashkil qilgan. Turklarda chorvachilik terminologiyasi nihoyatda rivojlangan: ko'plab tuyoqli chorva turlarining nomi bo'libgina qolmay, bir turdagi, har xil jinsdagi, har xil yoshdagi chorva uchun ham alohida nomlar bo'lgan. Bu terminlarning aksariyati o'zbek tilida saqlangan: qo'y, qo'zi, baqlan, sigir, buzoq, inak, ho'kiz, mol, taka, echki (gechchi), tana, kurra, xo'tik, xachir, arqar, uloq (o'g'loq), qo'chqor (qo'ch), qo'tos, buqa, tuya, bug'ra, bo'taloq va h.k.

Saqlanmagan yoki shevalarda qolib ketgan, ko'pchilikla notanish terminlar ham bisyor. Masalan: tuvça — bir yoshli urg'ochi echki; toqlı — bir yoshli urg'ochi qo'y; ingän — urg'ochi tuya; ud — yirik shoqli chorva, qoramol.

Chorvadan et, süt, yün, teri olingan. Sutan, o'z navbatida, qatiq, pişlaq, ayran, buğsun, qımız, qurut, süzmä, yoğurt (yo'g'irilgan, ya'ni aralashirilgan qatiq), içğän (çiğın, sudan tayyorlangan ichimlik turi), çal (tuya sudan tayyorlangan ichimlik, qimron), körcäk (qo'y yoki echki sudan tayyorlangan ichimlik), yağ, may, qanaq (qayaq, qaymoq) va boshqa mahsulotlar olishgan.

Yuqoridagilar asosan go'shti, suti, teri uchun kerak bo'lsa, ot turkning transporti, safar, ko'chish, harbiy yurishlardagi yo'ldoshi bo'lgan. Shu bois ot terminologiyasi yanada ko'proq so'zdan iborat bo'lib, oting tur, yoshi, jinsidan tortib, uzangisi, egarining komponentlariga aks ettiradi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da turkiyning boyligini namoyish etish uchun aynan ot terminologiyasiga murojaat etgani diqqatga sazovor.

Eng keng tarqalgan tushunchalar: at, yont, adğır(ayg'ir), badğır (bayğır, qorabayir), biyā, baytal, qulun.

Shuningdek, toğıq (tovuq) boqishgan va undan yumurtqa (tuxum) olishgan.

## TAOMLAR

Ko'chmanchilarning oziq-ovqat ratsioni, yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, juda boy va xilma-xil bo'lgan. Ovqatlar-

ning turi ham juda ko'p bo'lgan. Albatta, ko'chmanchilar ko'p go'sht iste'mol qilgan. Lekin ularning ovqati faqat qovurilgan go'shtdan iborat bo'lgan degan qarash yangilashdir. Ko'chmanchi qabilalar donli ekinlardan turli-tuman suyuq va quyuq ovqatlar pishirgan. Xamirdan qilinadigan taomlar ham ko'p bo'lgan. Eng mashhur xamirli ovqatlardan biri böräk deb yuritilgan. Yupqa xamirning ichini qiymaga, qovoqqa yoki sabzavotga to'ldirish yo'li bilan tayyorlangan bu taom ba'zi xalqlarda saqlanib qolgan, shuningdek, biz biladigan chuchvara (düş böräk, Samarqand barak ham deyiladi), cheburek (çiğ böräk), yumurta barak kabi taomlar undan kelib chiqqan. Qolaversa, ruscha "pirog" ham böräk'ka borib taqaladi.

Boshqa xamirli ovqatlar: ükrä, tutmaç, toqaç, boğursaç. Go'shtli ovqatlar: qoğurmaç (qovurmoch), toğrı (to'g'rama), buğlama, basturma, dimlämä.

Qadimgi turk oshxonasining eng mashhur, asosiy taomlaridan biri shahlik hisoblanadi. O'ljani gulxanda pishirishdan kelib chiqqan bu taom butun dunyoga mashhur bo'lib, noziklashib, son-sanoqsiz turlarga bo'linib ketdi. Uning asosi esa o'sha qadimgi ko'chmanchi turk madaniyatiga borib taqaladi. Shahlik so'zi ham eski turkcha şış "six" so'zidan kelib chiqqan (şışlik — sixlik).

Suyuq ovqatlardan yavgan, hoplama va boshqalarni esga olish mumkin.

Taom aş, dasturxonidagi yeyiladigan-hamma narsa esa umumiy qilib yemiş deb atalgan.

Bu taomlar buloq suvi, sut, qimız, sudan tayyorlanadigan boshqa ichimliklar, bug'doydan tayyorlangan bo'za, uzumdan tayyorlangan chog'ir va boshqa ichimliklar bilan tanovul qilingan. Organizmni vitaminka to'yintirish, shuningdek, baquvvat ovqat hazm bo'lishini osonlashtirish uchun ko'kat, sabzavot, meva-cheva, qurut, qatiq, suzma kabilar iste'mol qilingan.

## XULOSA

Yuqorida uzoq o'tmishda ajdodlar dasturxonini juda xilma-xil bo'lganini ko'rdik. Ko'chmanchilar faqat go'sht pishirib yegan, xilma-xil taomlarni boshqa, o'troq madaniyatlardan o'zlashtirgan degan stereotiplarni inkor qildik. Yana bir narsa: sanab o'tilgan taomlar, mevalar va hokazolalar hali hammasi emas. Koshg'ariyda yuzlab gastronomik atamalar bor; shevalarda, yozma manbalarda undan ham ko'prog'i sochilib yotibdi. Asosiylarini esga olishga harakat qildim.

Albatta, o'troq hayot oshxonani yanada boyitgani shubhasiz, lekin ko'chmanchilar oshxonasi ham juda boy edi. Ikki boy ana bir yerda qo'shilishi natijasida nihoyatda boy va rang-barang o'zbek oshxonasi shakllandi. Rossiya va Yevropa taomlari, yangi kirib kelgan kartoshka, pomidor kabi mahsulotlar bo'lgan oshxonani yanada boyitib, bugungi dasturxonimizni, oziq-ovqat ratsionimizni hosil qildi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, eski turk oshxonasiga oid ko'p terminlarni lotincha transkripsiyada keltirdim. Tushuntirish, tarjimasiz. Ko'pchiligi shu turishida ham tushunarli bo'ladi deb o'yladim. Ba'zilariga tushuntirish berib o'tdim, albatta, unutilgan yoki kuchli o'zgartgan so'zlarga. Lekin, umuman olganda, bu so'zlarning aksariyati o'zbek tilida (va boshqa turkiy tillarda) saqlangan va bizga yaxshi tanish. Bir necha ming yildan o'tib, bugungacha yetib kelgan taomlar va ularni ifodalaydigan so'zlar dasturxonimiz va tilimiz ko'rkidir.

Eldor ASANOV

# Har bir asarda kitobxon o'zini ko'radi

Tanlovimiz doirasida fevral oyida mutolaa qilganimiz — "Alvido, Gulsari" asari bo'yicha o'quvchilarning fikr-mulohazalari bilan tanishib chiqdik. Bizni qivontirgani safimizga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand hamda Toshkent viloyatidagi ta'lim muassasalari o'quvchilari qo'shildi (o'tgan yili ushbu hududlardan mutlaqo qatnashmagan), ayniqsa, samarqandlik o'quvchilar taassurotlari e'tirofga sazovor. Shunday iqtidorli bolalar borligidan qivondik. Shuningdek, Jizzax shahridagi 9-maktab o'quvchilari Firdavs Shakarov, Sabrina Meliyeva, Malikabonu Hamroyeva, Zuhra Mamajonova, Muxlisa Asatullayeva, Laylo Rajabova, "Qa'qum" yosh jurnalistika va notiqlik to'garagi qatnashchisi Xolida Musurmonova, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanidagi 3-maktab o'quvchilari Jasmira Nizamatinova, Ozoda Jumamuratova, Aysuluv Temirxonova, xuddi shu tumanidagi 6-maktab o'quvchilari Asadbek O'ktamov, Bibinova Xojametova, Samarqand shahridagi 64-maktab o'quvchilari Sarvinov Eshboeva, Mahliyo Qoraboyeva, Narpat tumanidagi 43-maktab o'quvchisi Dinara Husniddinova, Termiz tumanidagi 9-maktab o'quvchilari Mohinur Eshmo'minova, Ozoda Annamurodova, Samandar Omonov, Asror Xo'jayev, Termiz shahridagi 13-maktab o'quvchisi Gulnaxsor Safarova, Hazorasp tumani Pitnak shahridagi 9-maktab o'quvchilari Dostonbek Ro'zimov, Kumushoy Yo'ldosheva, Nuriya Yarasheva, Zebiniso Mamatova, Rohatoy Ro'ziboyeva, Jamshid Ro'zimov, Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi agrosanoat va tadbirkorlik kasb-hu-

nar kolleji o'quvchilari Mohigul Nabiyeva, Ulfatoy Musayeva, Mohigul Abdullayeva, Romitan tumanidagi 23-IDUM o'quvchilari Jasmira Rashidova, Sevinchbonu Botirova, Feruza G'aniyeva, Umida Sobirova, Elbek Ilhomov, Romitan tumanidagi 33-maktab o'quvchisi Shahzoda Ro'ziyeva, Peshku tumanidagi 28-maktab o'quvchisi Sabina Bekmurodova va boshqalarning taassurotlari bilan tanishib chiqdik. Ular orasida kim asarni o'qib chiqqan, kim o'qimay turib eshitganlari bo'yicha yozib yuborgan, barchasi bizga yaqqol sezildi. E'tiborimizni tortgan yana bir jihat: bir o'qituvchining o'quvchilari asardan deyarli bir xil taassurot olishgan. Aziz ustozlar, o'quvchilaringizga taassurotlarini yozish bo'yicha tavsiyalar berganingiz yaxshi, ammo har bir o'quvchi alohida shaxs va uning o'z fikri bo'lishi kerak.

Taassurotlaringizni yozishda asar voqealari rivojini, ma'no-mazmunini yozishingiz shart emas. O'zingizga qanday xulosa chiqardingiz, nima o'rgandingiz, qaysi qahramonda o'zingizni ko'rdingiz? Biz uchun asarni qay darajada tushunganingiz, o'z fikringiz muhim. Quyida ana shunday talablarga mos tushgan ishlardan ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz. Demak, sahifamizning bu songi mehmoni buxorolik tengdoshlaringiz!

Mart oyida mutolaa qilish uchun hamkorimiz — G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan Oybekning "Qutlug' qon" asari tavsiya etildi. Taassurotlaringizni info@marifat.uz, @Marifat kitobxoni elektron manzillarimizga jo'natishingiz mumkin!

## GULSARIGA ATALGAN QO'SHIQ

Oltin tusli Gulsari  
Ham chiroyli, go'zal ot.  
Yollari sariq-sariq,  
Hamma otdan o'zar ot!  
Tanaboyga dardmandim,  
Erkingni boyladilar.  
Do'stlaringdan ayirib —  
Qay tomon chorladilar?  
Gulsarijon, Gulsari,  
Eshit gulgun so'zimni.  
Uchding osmonlar sari,  
Qo'shiq qildim o'zingni.  
Kishanlarning og'ritgan,  
Tuyoqlarining silayin.  
Seni do'stim, og'amdek,  
Og'riqlarining olayin.  
Ozodlik shu: qon bilan,  
Jon berib olinadi.  
Erk uchun kurash asli  
Shunday og'ir bo'ladi.  
Gulsarijon, Gulsari —  
Yollari sariq-sariq...

Madina TOSHBOLTAYEVA,  
Romitan tumanidagi  
23-IDUM o'quvchisi

## Tanaboyning og'lidek bo'lmayman

7-sinfga o'tgandan so'ng baholarim ancha pasayib ketdi. O'qituvchilar tartib-intizomim va o'qishim pasayganidan ota-onamga shikoyat qilishdi. Oilada 4 og'ilmiz kattamiz — cho'pon, ikkinchi akam haydovchi, uchinchi Rossiyada, uyimizdagilar mening oliy ma'lumotli, o'qimishli bo'lishimni juda orzu qiladi...

Ustozim meni chaqirib nasihat qildi. Qo'limga "Alvido, Gulsari" degan kitobni tutqazib, "O'qib chiq, fikrlaringni gazetaga, tanlovga jo'natamiz, senga ishonaman", dedilar. To'g'risi, bu hayotimda o'qigan birinchi va eng yaxshi asarim bo'ldi. Qaysidir o'rinlari mening hayotimga juda yaqin ekan. Ayniqsa, qo'ylarni qo'zilatish, yangi tug'ilgan qo'zichoqlar sovuqda muzlab qolmasligi uchun ehtiyot choralarini ko'rish, ular uchun yem-xashak to'plash, qo'ralarni qiydan tozalash — bu muhit menga juda tanish. Yozuvchi bu jarayonlarni shu qadar ta'sirli hikoya qilganki, chindan ham, bitta qo'zichoq nobud bo'lsa, qanchalar achinisa, ular to'da bo'lib dikonglab raqs tushganda qalbing zavqqa to'lishi kabi hislarni tuyasan.

Tanaboy va Gulsarining mungli qo'shiq kabi chiroyli va g'amgin hayoti haqidagi voqealarga to'xtalsam, inson umri uchqur

ot kabi yeldek o'tib ketar ekan... Tanaboy inson sifatida kamchiliklardan xoli emas. Masalan, akasiga nisbatan qilgan ishini oqlamayman. Tanaboy ana shunday alg'ov-dalg'ovli, shirin-u achchiq hayotini Gulsarining o'layotgan boshi uzra esga olar ekan, uning xotiralaridan judayam ta'sirlandim. Hatto ko'zlarimga yosh keldi...

Hozir akam cho'lda qo'y boqyapti. Bu cho'llarda fermerlik qilib otarning yoshlik yillari o'tdi. Uning qalbida ham ne-ne o'y-xayollar, orzu-armonlar, tashvishlar bo'lgandir. Men bu orzu-armonlarga quloq tutaman. Tanaboyning og'lidek bo'lmayman, ota-onam keksayganda tirgak bo'laman. Toki otam qariganda men uchun afsus emas, faxr qilib yursin.

Shohrux TO'XTAYEV,  
Shofirkon tumanidagi  
40-maktab o'quvchisi

Salom Gulsari! Sen bilan bog'liq taqdir meni juda hayratlantirdi. Asar so'ngida sening halok bo'lishingni sira istamagandim. To'g'ri, buvijonim doimo "Hayot abadiy emas, ammo unda jisming bo'lmasa-da, noming mangu yashashi mumkin", deb aytadilar.

## Gulsariga maktub

Menimcha, seni o'qigan har bir o'quvchi Chingiz boboning ertagiday xotirasida yashab qolishini juda istaydi. Xuddi men kabi. Mening ham senga o'xshagan chiroyli otim bor. U 9 yoshda. Endi u otga qanday erishganimni senga so'ylab bermoqchiman. 2-sinfda o'qirdim. Bir kuni bobomning bog'iga bordik va men bir ajoyib otini ko'rdim. Uning peshonasi qop-qora edi. Dadamga xar-xasha qildim, shu otini olib bering deb. Bobom bu holatimni ko'rib uni menga sovg'a qildi. Unga nom ham berganman — Chaqmoq. O'zi ham xuddi chaqmoq-

dek kuchli, serg'ayrat. Menimcha, hozir unga teng keladigan otning o'zi yo'q. Biz har kuni u bilan tongda sayr qilamiz. Undan sira ayrilgim kelmaydi. Ana shuning uchun ham Tanaboyni ko'proq tushundim. Seni undan olib ketishganida qanchalar azoblanganimni his qildim. Meni ham otimdan yiroqlashtirmoqchi bo'lishdi. Chunki men ham unga qattiq bog'langan edim-da. Yaqinlarim, ustozlarim, o'qishlarimdan qolib ketmasligim uchun otimdan vaqtincha ayirdilar. Ammo shu ayriqlikda ko'p narsani tushundim. Do'stlik

Asarni o'qib hamma narsaning ham oxiri borligini angladim. Insonlar bir umrlik hayotlarida yaxshilikni ham, yomonlikni ham ko'radi. Lekin bari-bari o'tib ketar ekan.

## Jonivorlar ham his qilishni biladi

Sevimli otimizga aylangan Gulsarini ham taqdiri azal o'z komiga tortib ketdi. Qanday chiroyli, kuchli ot umri oxirida aravaga qo'shilib, nom-nishonsiz qoldi. Gulsarini minganlar uning yo'rg'a ekanligi, kuchli, baquvvat ekanligi bilan maqtanishardi. Ot uchun esa ularning kim ekanligi ahamiyatsiz edi. Faqat xo'jayini Gulsarini ardoqlar edi va umrining oxiri-

gacha u bilan birga ekanligi, to tirik ekan uning nomi o'chmasligi asar so'ngida berilgan. Men ham tabiatni ardoqlab, har bir jonzotga mehr va shafqat bilan qarash kerakligini, ular ham insonlardek his qilishlarini bilib oldim.

Dilshod UMAROV,  
Romitan tumanidagi  
33-maktab o'quvchisi

"Alvido, Gulsari" qissasidagi menga eng yoqqan obraz bu Jaydar obrazini bo'ldi.

## Jaydar — qirg'iz ayoli timsoli

Jaydar asarda Tanaboy Bekasovning ayoli sifatida keltiriladi. Jaydar Tanaboy Bekasov bilan bir yostiqa bosh qo'yib, hayotida turli qiyinchiliklar, og'irliklar kelganda ham barchasiga ko'nib yashagan qirg'iz ayoli. Tanaboy unga xiyonat qilganida ham uni tashlab ketmadi, o'z oilasi, farzandlari va turmush o'rtog'ining or-nomusini o'ylab ayol boshi

bilan barcha qiyinchiliklarga chidadi. Jaydarning va-fosi, sadoqati, fidoyiligi negizida men o'zbek ayollariga xos xislatlarni, fazilatlarini ko'rdim. Jaydardagi oddiylik, mehnatkashlik, mehribonlik va vafodorlikni xuddi o'z onamga o'xshatdim. Har jihatdan ham ikki xalq o'rtasida juda yaqin aloqa va xususiyatlar mavjud ekan. Jaydar yolg'iz qolganida, ba'zan Tanaboy iltimos qilganida chanqovuz chalib qirg'iz allalarini, kuylarini ijro qiladi. Onam ham bizga doimo xalq qo'shiqlari, maqol va ertaklarni hikoya qilib beradilar. Shu paytda men eng chiroyli ovoz onalar ijro etgan kuy-qo'shiqlardagi sehrli ovoz ekanligiga amin bo'laman. Asarda ham Jaydar obrazida haqiqiy qirg'iz ayolining sadoqatini ko'ra oldim. Ushbu obraz orqali sabrli bo'lishni, boriga qanoat qilib yashash kerakligini o'rgandim.

Hikoyat AHADOVA,  
Romitan tumanidagi  
23-IDUM o'quvchisi  
Charos YOQUBOVA tayyorladi.



ham sinovlarda toblanishi kerak ekan. Qariyb 2 yil davomida men ota-onam orzu qilgan farzand bo'lish uchun ingliz tilini mukammal o'rganishga bel bog'ladim. Yaqinda o'tkazilgan "Hippo" xalqaro olimpiadasida sertifikatni qo'lga kiritdim. Ora-orada do'stim Chaqmoqni ham ko'rib turibman. Uni ko'rsam, sog'inchlarimni yashirolmayman. Bilasanmi, Gulsari, sening halok bo'lganini o'qib juda qayg'uga tushdim. Ammo chin do'stlar hech qachon o'lmashini bilib senga maktub yozdim. Mening g'oyibona do'stim bo'lganiga uchun sendan minnatdorman!

Shohjahon MIRZOYEV,  
Romitan tumanidagi  
23-IDUM o'quvchisi

12 "...shu ishni men qilmasam, boshqa hech kim qilmaydi, ehtimol, qilolmas ham".

## "Fikr qudrati"ga tayangan umr

Tahrir san'atining professional mutaxassisi, munaqqid, jurnalist, pedagog Mahmud Sadiyning "Fikr qudrati" kitobi nashr etildi. "Ta'lim-media" nashriyoti tomonidan chop etilgan kitobda Mahmud Sadiyning uzoq yillik mehnatlaridan bir shingili jam bo'lgan.



Xususan, tahrir, jurnalist va muharrirlik ishi haqidagi yombi fikrlardan iborat maqolalar, ma'naviy hayotimiz darg'alari bilan suhbatlar, ustozning yosh shogirdlari ijodiga bergan baholari va "Oq yo'l"lari hamda tarjimalari o'rin olgan. Kitob "Muharrir va muallif", "Adabiyot va adabiy tanqid", "Adabiy gurunglar", "Publicistika", "Oq yo'l va so'zboshilar", "Tarjimalar" kabi bo'limlardan tarkib topgan.

"Tahrir ishiga o'rgangan odam uchun bu ish hayotining mazmuniga aylanib qoladi. Odam havodan nafas olmasa turolmaganidek, siz ham xatoni ko'rsangiz tuzatgiz kelaveradi", deyiladi "Tahrir san'ati" maqolasida. Ustoz kimlardir pisand qilmagan ishlar jurnalistikaning, adabiyotning asosi ekanini ta'kidlar ekan,

"...shu ishni men qilmasam, boshqa hech kim qilmaydi, ehtimol, qilolmas ham", deydi. Kitobni o'qir ekanisiz, chetdan qaraganda ijodning qora mehnati bo'lib tuyulgan ish katta mahorat talab qilishini, kishiga zavq bag'ishlashini sezib borasiz. Shu ishga butun umrini sarflagan insonning hayoti nurlanib bo'lib ko'zga ko'rinadi. "Janob muallif" maqolasida Mahmud Sa'diyning mualliflar bilan ishlash mahorati sirlari muharrirlikka da'vog'lar uchun ochiladi. "Men bilgan haqiqat" nomli maqolada munaqqidning insonlik martabasi, ijod va vijdon, millatning bugungi ahvoli haqidagi achchiq haqiqatlari bilan yuzma-yuz kelasiz.

Ustoz mustahkam e'tiqodi, haqiqatni aytish payida bo'lishi, o'ylaganini hayiqmay ayta olishi, biror asarga baho berishda vijdonan yondashishi bilan adabiy jamoatchilik orasida katta hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgandi. Butun ongli faoliyatini adabiyot va haqiqat targ'ibotiga, yosh iste'dodlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga bag'ishlagan ustoz "Sharq yulduzi", "Guliston" jurnallari, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Ma'rifat" gazetalarida jurnalistlik va muharrirlik qildi, keyinchalik O'zbekiston davlat jahan tillari universitetida hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida yoshlarga saboq berdi. Ustoz tavalludining yetmish yilligiga bag'ishlab chop etilgan "Qadr" kitobida safdoshlari, hamkasblari va shogirdlari uning xizmatlarini e'tirof etar ekan, "Akademik Qo'shjonovning "ustoz"i", "tahrir san'atining so'ngi mogikanlaridan", "tahrir san'atining piri" degan baholar shunchaki emasligini tushunib yetasiz.

Suhrob ZIYO



## "Avliyolarim"

Sharqshunos, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, izlanuvchan olim Kamron Shoniyazov kitobxonlarga "Avliyolarim", "Nurli qablar" kitoblarini taqdim etdi. "Avliyolarim" uch tilda: o'zbek, rus, ingliz tilida chop etilgan bo'lib, buyuk bobokalonimiz, XIII asrda Toshkentda yashab ijod etgan Shayx Xovand Tohumning hayoti va ijodi, uning ajdodlari va avlodlari haqida.

Shuningdek, ushbu kitob orqali Shayx Xovand Tohumning oila a'zolari va yaqin qarindoshlari, hozirda Xo'jakent, Nanay, Bog'iston, Xumson qishloqlari hamda Toshkent shahrida yashayotgan avlodlari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Ilohiyot va tariqat ilmi namoyandalaridan Shayx Xovand Tohur o'z hayoti bilan insonlarga namuna bo'lish barobarida ko'plab no'dir asarlar yaratgan. "Avliyolarim" kitobida Shayx Umar Vali Bog'istoniy, Xoja Ahror Valiyarning hayoti, ular qoldirgan merosni o'rganish davomida, biz ularning "buyuk avliyo"lar ekaniga qayta-qayta iqror bo'la-

miz. Alisher Navoiy allomaning yozgan eng muhim maktublarini alohida to'plam holiga keltirib, unga "Majmuayi murosalat" deya nom bergan. "Navoiy albomi" deya ataluvchi ushbu majmua ayni paytda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. "Avliyolarim" to'plamidan O'zbekiston Milliy universitetning "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi yo'nalishi doirasida foydalanish mumkinligi e'tirof etildi.

Zulxumor ABDURAHIMOVA,  
Yunusobod tumanidagi  
51-maktab o'qituvchisi



## Siyosiy yetakchi imiji

Siyosiy yetakchi imiji, odatda ommaviy axborot vositalari, siyosiy targ'ibot va tashviqot ishlari ta'sirida, bevosita muloqotlar orqali, ayniqsa, rahbar sifatida olib borgan davomli faoliyati natijasida shakllanib boradi.

Nuriddin Qolqanov tomonidan tadqiq etilgan ushbu mavzu, uning natijasi sifatida chop etilgan monografiya bugungi kun talabi va yangi taraqqiyot yo'lini tanlagan, o'ziga yarasha murakkab jarayonlarni boshidan kechirayotgan O'zbekiston siyosiy hayoti uchun ahamiyatga molik ilmiy asar sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Kitobda Aristotel, J.Blondel, Aflotun, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmuluk, Amir Temur va Alisher Navoiy

asarlari misolida bizning tushunchamizdagi siyosiy yetakchi imiji o'z tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgani, davrlar osha sayqal topgani va insoniyat tamaddunining talab etilgan qadriyati darajasiga kelgan ilmiy xulosa sifatida berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar, internet ma'lumotlari bu mavzu ustida qanchalik mehnat qilinganidan dalolat. Tadqiq etilgan mavzular monografiyada ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqib yoritilgan, qimmatli xulosalar berilgan, takliflar kiritilgan.



Murodulla MIRZAYEV,  
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

## Ha, bu o'sha "Gulxan"! "Gulxan" jurnali...

"Ertaga tayin olib kel. Mening navbatim. Esingdan chiqsa, kuningni ko'rasan..."

Ha, bu o'sha "Gulxan"! Mening, sizning, bizning olov bolaligimiz. Maktab chog'larimizni eslasak, "Gulxan", "Gulxan"ni varaqlasak, bolaligimiz ko'z oldimizda gavdalanaveradi.



Sevimli jurnalimiz 90 yoshni qarshi oldi. O'tgan yillar mobaynida u millatimiz bolalari qalbidagi, ularning yo'lini yorituvchi haqiqiy gulxanga aylana oldi. Jurnalning 90 yilligiga bag'ishlangan maxsus sonini varaqlar ekanisiz, beixtiyor hayratlanasiz. Maxsus son jurnal tahririyatida faoliyat yuritgan bosh muharrirlarning "Gulxan" haqidagi fikrlari bilan boshlanadi. G'ani Jahongirov, Jumaniyoz Jabborov, Yayra Sa'dullayeva, Omon Matjon, Oydin Hojiyeva, Abdulla Oripovdek ne-ne buyuklarning mehnati singgan "Gulxan"imizga!?

"Umr o'tadi, biroq orzu qilardimki, kelajakda kimdir meni ham "Gulxan" jurnalida ishlagan deb eslasa..." Shu kabi fikrlarni o'qib, beixtiyor qalbingiz hayajonga keladi. Keyingi sahifalarda Kavsar Turdiyeva, Salim Ashur, Dilshod Rajab, Orif To'xtash kabi taniqli ijodkorlarimizning bolaligida "Gulxan"da e'lon qilingan ilk mashqlarini ham ko'rasiz. "Gulxan"ning haqiqiy iste'dodlar kashfiyotchisi ekanligiga yana bir bor amin bo'lasiz.


Biz ham "Gulxan"ni 90 yoshi bilan qutlaymiz! Uning millat bolalari qalbidagi abadiy olovlanishiga ishonamiz.

Humoyun QUVONDIQOV

Kompyuter boshqarish qurilmasi mashina buyruqlari ketma-ketligi shaklida berilgan dasturni qabul qiladi. Dasturni mashina tilida yaratish — noqulay va katta mehnat talab qiluvchi jarayon. Shu sabab kompyuter uchun dastur inson tomonidan dasturlash tillaridan birida yaratilib, keyin esa kompyuter dastur o'zi ushbu dasturni mashina tiliga o'giradi.

## "C++ tili asoslari" — texnologiyalar tili haqida yangi kitob

Dastur — muayyan natijani olish uchun kompyuter va boshqa kompyuter qurilmalari faoliyati uchun mo'ljallangan ma'lumot va buyruqlarni taqdim etishning zaruriy sharti. Raqamli olam va raqamli iqtisodiyot shiddat bilan butun dunyo tamadduni tezlashtirayotgan bir paytda, dasturchi va dasturiy ta'minotning bozori chaqqon. Rivojlangan mamlakatlarning yalpi milliy mahsuloti dasturiy mahsulotlar tufayli jadal o'sayapti. Axborot xavfsizligi masalasidagi dasturlar savdosida Rossiya dasturchilari birinchi o'ringa chiqib oldi.



Butun dunyo maktablarida BASIC, DELPHI, PYTHON, JAVA, C++, PASCAL algoritmik tillari o'qitilib kelinmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda yoshlar o'rtasida C++ algoritmik tiliga qiziqish ortmoqda. Shularni inobatga olib, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi akademik litsey ilmiy-pedagogik kengashi tavsiyasi bilan "Nihol" nashriyotida shu yili chop etilgan "C++ tili asoslari: amaliy qo'llanma nazariya, masalalar, mulohazalar, yechimlar, tavsiyalar" dasturlashga qiziquvchi yoshlar hamda informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarida katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Mualliflar

guruhi katta tajribali metodist olimlar, muhandis, talaba va maktab o'qituvchilarini jalb etib o'zbek tilida birinchi marotaba keng ommaga mo'ljallangan qo'llanma yoza olgan. Qo'llanma "Algoritmiklash va dasturlash asoslari" seriyasiga bag'ishlangan navbatdagi kitob bo'lib, u dasturlash tillaridan biri bo'lgan C++ tilining elementlari, dastur tarkibi va tavsifi, unda dasturlash imkoniyatlari va usullari, tuzilmalarning mohiyatiga bag'ishlangan. Qo'llanmada masalalar yechishda foydalaniladigan matematika fanidagi tayanch va qiziqarli ma'lumotlar berilgan bo'lib, foydalanuvchi o'z bilim

doirasiga mos qismini ushbu va qo'shimcha qo'llanmalar asosida to'ldirishi va rivojlantirishi mumkin. Ma'lumotlar va vazifalar "oddiydan murakkab"ga mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan. Keltirilgan masalalar qiyinlik darajasiga ko'ra A, B, C, D guruhlariga ajratilgan. Bunday usul bilan o'quvchilarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlashda o'qituvchilarga qo'l keladi. C++ tili aksariyat jahon olimpiadalari asosiy tili ekanligini hisobga olsak, qo'llanma maktablar uchun zarurligi ayon bo'ladi.

Baxtiyor KARIMOV,  
O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi

## Bolalar bor-u, bolalik yo'q

G'afur G'ulom nomini eshitganimiz zahoti xayolimizda uning "Shum bola" qissasi, bu asar asosida ishlangan film va hayot qiyinchiliklari bilan kurashayotgan o'sha bolakay — Qoravoy gavdalanadi.

"Shum bola" qissasini o'qiganimizda yoki badiiy filmini tomosha qilganimizda har gal o'spirin bolaning zukkoligi, olg'irligi-yu topqirligi, sho'x-shaddodligini ko'rib zavqlanamiz, hayratlanamiz. Garchi yolg'onchiligi, shumliklari odob-axloq qoidalariga zid bo'lsa-da, mutolaa davomida unga xayrixoh bo'lamiz. Sababi, asarda shum bola o'zidan-da shumroq, o'zidan-da olg'irroq hayot bilan yuzma-yuz keladi, ta'bir joiz bo'lsa, kurashga kirishadi.

Yaqinda internet orqali jahon adabiyotiga taalluqli ma'lumotlarni o'qiyotib, bir qiziq faktga duch keldim. Unda G'afur G'ulom asari qahramoni singari mashaqqatli hayot tarzini yashab o'tgan "Shum bola"ning oshnalari — o'z uyiga sig'masdan aqlini ko'chada tanigan, hayot sinovlarida toblangan bolalar haqida so'z yuritilgan ekan.

Masalan, Jorjetta Gegen-Dreyfusning "Kichkina Jak" asarini olaylik. U Parij yaqinida tug'ilib o'sgan bolakay haqidagi qissa. Uning otasi ishsiz qolib, katta oilasini boqishga qiynaladi. Natijada Jak Parijga qochib ketadi. Bu shaharda ko'plab sarguzashtlarni boshidan o'tkazib, uyiga qaytadi.

Aleks Veddingning "Temir buqacha" asarida esa 11 yoshli qishloq bolasi Te Nyu — Temir buqacha Pekin shahriga keladi va tajribasizligi tufayli ilk kundanoq firibgarlardan pand yeydi. Ancha payt bezorilik bilan kun kechirgan bolakay tayinli boshpanaga ega bo'lgach, hayotida yangi davr boshlanadi.

Yana bir mashhur yozuvchi Frensis Bret Hartning "Dashtda topilgan bola" asari ham ayni shu mavzuda. O'n bir yoshli Klarens begona oilada o'sib-ulg'ayadi va ota-onasi haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmaydi. Haqiqatni bilgach, mustaqil ravishda yaqinlarini izlab topishga urinadi. U butun mamlakat bo'ylab mashaqqatli va qaltis yo'lga chiqadi, tabiiyki, safar davomida kutilmagan voqealarga duch keladi.

Mazkur asarlar qahramonlarining hayoti tasvirlangan davr "Shum bola"dagi davr bilan deyarli bir vaqtga to'g'ri keladi. Voqealar dunyoning turli mintaqalarida bo'lib o'tsa-da,

qiyinchiliklar, sinovlar, qismatlar bir-biriga o'xshash, biri-biridan og'ir va mashaqqatli. Ushbu asarlar bilan yaqindan tanishgan inson o'sha davr dunyo bolalarining hayoti, taqdiri naqadar o'xshashligini teran anglaydi.

Dunyo yozuvchilari qatorida atoqli adib G'afur G'ulom ham o'z qissasida shum bola nigohi bilan bolalarining o'smirlik davrini kuzatarkan, unga tahliliy nazar tashlab, fojialar ildizini ochishga intiladi.

Jumladan, Shum bola o'zi va o'rtoqlari haqida aytadi: "Ertadan-kech ko'cha changitib, hammaning joniga tegib, kampirlardan qarg'ish eshitib, o'spirinlardan kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan uvin-to'da bekorch bolalarimiz". Bu fikrlardan ayon bo'lyaptiki, mustaqil hayot ostonasida turgan, hozirdan katta hayotga tayyorlanishi kerak bo'lgan 15-17 yoshli o'smirlar o'qib-o'rganishi kerak bo'lgan bir paytda bekorchilikka mahkum.

Qashshoqlik inson tinkasini quritadigan og'ir sinov. U hech kimni ayab o'tirmaydi. Bunday vaqtlarda bolalikning oltin davri bo'lmaydi. Murg'ak qalblar erta ulg'ayadi. Har qadamda hayotning beshafqat sinovlariga duchor bo'ladi. Masalan, "Shum bola" asaridagi Omon obrazini olaylik. Bu yoshgina bolaning xayolida halitdan qanday fikrlar g'uj'gon urayotganiga e'tibor bering-a! U qo'yini yo'qotib qo'ygan vaqti Qoravoydan achchiqlanib, men uyga quruq qo'l bilan so'ppayib kirib borishga uyalamam, mahallada falonchining bolasi shuncha vaqt ishlab shumshayib qaytib kelibdi degan gap-so'zlardan orlanaman, deydi. Ha, mana shu yerda o'sha davr bolalarining musibati yanada aniqroq bo'y ko'rsatadi.

Asardagi bolalar ayni o'qib-o'rganishi kerak bo'lgan bir davrda ro'zg'or tashvishlari bilan andarmon. Go'yo hayot bor og'irligini ularning nozik yelkalariga tashlab qo'ygandek. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, ushbu asar tasvirlangan davrda bolalar bo'lgan-u, bolalik bo'lmagan.

Diyora JALILOVA,  
Zangiota tumanidagi  
36-maktab o'qituvchisi,  
Chirchiq DPI 3-kurs talabasi

Har bir millatning shon-u shavkatini, o'lmas qadriyatini belgilab beradigan bir mezon bor, bu — adabiyot. Adabiyot dunyo xalqlarida mamlakat, millat nomidan so'zlaydi.

## Orzular muallimi

Shu o'rinda buyuk shoir Cho'lponning "Adabiyot yasha — millat yashar" deya qayg'urganini alohida ta'kidlash joiz. Odatda, endigina she'r yoza boshlagan o'spirin yoki qizaloq uyatchan bo'ladi.

Ayni shu lahzada bir insonning, adabiyot o'qituvchisining yordami kerak bo'ladi. Iste'dod o'z vaqtida qo'llab-quvvatlangan, yo'nalish to'g'ri belgilab berilsa, yuzaga chiqadi. Bu vazifani esa faqat o'qituvchigina bajaradi.

Aslida adabiyot o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak? Avvalo, uning har bir so'zida, fikrida chuqur ma'no bo'lishi lozim! Axir u bolalarga orzu qilishni, savol berishni, va eng muhimi, kitob o'qishni o'rgatadi. Orzu qilindimi — u qachonlardir amalga oshadi. Savol berildimi — javob topiladi. Bolaga kitob o'qi deyish, matnini yodlatish bilan u kitobxon bo'lib qolmaydi. Biz, odatda, keng va chuqur mushohada yuritadigan odamlarga havas qilamiz. Biz havas qilayotgan o'sha odamning tafakkuri bolaligidanoq shakllanishiga adabiyot o'qituvchisi sabab bo'lgan, shubhasiz.

Ehtimol, men hozir aytmochi bo'lgan gap kimgadir yoqmas, kimningdir ensasini qotirar. Albatta, bu mening shaxsiy fikrim. Gapning indallosi shuki, bugun qaysi maktabdan shoir, ijodkor chiqmayotgan bo'lsa, demak, o'sha maktabda adabiyot o'qituvchisi yo'q. Bo'lsa ham — diplomda adabiyotchi.

Aslida adabiyot o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak? Avvalo, uning har bir so'zida, fikrida chuqur ma'no bo'lishi lozim! Axir, u bolalarga orzu qilishni, savol berishni va eng muhimi, kitob o'qishni o'rgatadi. Orzu qilindimi — u qachonlardir amalga oshadi. Savol berildimi — javob topiladi.

"Hozir yoshlar kitob o'qimay qo'ydi!", degan gap tez-tez quloqqa chalinadi. Xalqimizda bir gap bor: "Bola boshdan...". Demak, adabiyot o'qituvchisi qayerdadir xatolikka yo'l qo'ygan. Demak, yana sabab — o'qituvchining mas'uliyatida. Biz ertaklar, matallar, dostonlar og'ushida ulg'ayganmiz. Qahramonlar makoni bo'lgan o'sha ertaklar bilan, adabiyot o'qituvchisi bilan ko'ngildosh bo'lganmiz. Demak, adabiyot darolarida ertak, dostonlardan keng foydalanishimiz kerak. U iqtisodchimi, uchuvchimi, quruvchimi, qaysi kasbni tanlashida qat'i nazar, birinchi navbatda, kitob bilan, adabiyot o'qituvchisi bilan yaqin bo'lishi kerak. Adabiyot o'qituvchisi — har bir bolaning ko'nglida ezgulik uyg'otadigan eng birinchi inson. Uning kamol toptiradigan kasbi shuning uchun ham mas'uliyatli, zahmatli va sharaflidir. U shuning uchun ham adabiyot o'qituvchisi, shuning uchun — hayot o'qituvchisi, orzu o'qituvchisi. Shunday ekan, adabiyot o'qituvchisidan katta bilim va salohiyat talab etiladi. U o'g'il-qizlarga har tomonlama namuna bo'lishi kerak. Chunki bola eshitganidan ko'ra ko'proq ko'rganiga taqlid qiladi.

Shuhrat MUSTAFOQULOV,  
Xovos tumanidagi 19-maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

### Reklama

## O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi quyidagi lavozimlarga shartnoma asosida tanlov e'lon qiladi:

"Islom tarixi va manbashunosligi — IRCICA"

kafedrasi bo'yicha:

- kafedra mudiri.

"O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti"

kafedrasi bo'yicha:

- dotsent — 1 ta.

"Arab tili va adabiyoti — al-Azhar" kafedrasi

bo'yicha:

- kafedra mudiri;
- dotsent — 2 ta.

"Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi bo'yicha:


- dotsent — 1 ta.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi bo'yicha

- dotsent — 1 ta.

TANLOVDA QATNASHISH UCHUN  
QUYIDAGI Hujjatlar taqdim  
ETILISHI LOZIM:

- rektor nomiga ariza;
- xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa va tarjimayi hol;
- oliy ma'lumoti, ilmiy daraja va unvoni haqidagi diplomlar;
- malaka oshirigani haqidagi guvohnoma nusxalari;
- ilmiy ishlari ro'yxati;
- tanlovdan o'tayotgan shaxsning faoliyati haqida hisobot;
- professor-o'qituvchilar darsini o'rganish sifat komissiyasining xulosalari;
- kafedraning professor-o'qituvchi faoliyati,



ochiq darslari tahlili muhokamasiga bag'ishlangan majlisi qarori.

Tanlov muddati — e'lon chiqqan kundan boshlab 1 oy.

Manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,  
Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.

Telefonlar: (71) 244-00-91, 241-18-09.



# Qo'ng'iroq chalinguncha

Hayot — kutilmagan hodisalar, tasodiflar va tilsimlarga boy. Ba'zan yashayotganimiz, to'yib-to'yib nafas olayotganimiz, ko'rayotganimiz, yurayotganimiz, va hattoki, bu dunyoda borligimizning o'zi ham asl mo'jiza ekanligini unutib qo'yamiz. Yaqinda ingliz adiblaridan birining kitobini o'qib, hayot naqadar buyuk ne'mat ekanligiga yana bir bor iqror bo'ldim.

## Yashamoqchimisiz? Hayot badalini to'lab qo'y!

Kitobda burgut hayoti haqida hikoya qilinadi. Burgut o'rtacha 70 yil umr ko'rar va bu umr ikki qismdan iborat ekan. Birinchi qismi 40 yilni o'z ichiga olib, bu davr mobaynida burgutning tumshug'i, timog'i o'sib, dag'allashib ov uchun noqulay holatga kelarkan, patlari ham o'sib, qalinlashib yuksaklarga uchishga to'sqinlik qilib qolarkan. Burgut oldida ikki yo'l: yo o'zini qaytadan kashf etish yoki ochlikdan o'lish. Bilamiz, burgut mag'rur qush, u hech qachon mag'lub bo'lmaydi. Shuning uchun ham u qoyaning yuqori cho'qqisiga in qurarkan va o'sha yerda mustahkam joylashib olgach, ovga yaramay qolgan tumshug'ini toshga urib sindirib, ko'chirib tashlar ekan. Oradan 4 oy o'tgachgina

yangi tumshug' o'sib asl holiga qaytararkan. Endigi navbat tirmoqlarga. Burgut baquvvat tumshug'i bilan tirmoqlarini sug'urib olib tashlaydi. Va yana 4 oy tirmoqlari qaytadan o'sib chiqishini kutadi. Va nihoyat mustahkam tirmoqlari bilan keraksiz patlarini bitta-bitta yulib olarkan. Endi esa sabr va matonat bilan patlari o'sishini kutarkan. Bir yil deganda burgut yana keng osmonni zabt etish uchun shay holga keladi va o'z umrining ikkinchi qismini boshlaydi.

Agar yuksak marralarni zabt etmoqchi bo'lsang, hayotdagi qiyinchiliklarga, turtinislarga, nafs va ehtirolarga asir bo'lma. Yashash uchun ishtiyoq bo'lsa, imkon har doim topiladi.

Fotimaxon MAHMUDOVA,  
Quva tumanidagi  
27-maktab o'qituvchisi

## Oxirgi dars

Inobatxon ilgari ishlagan maktabida bo'lgan bir yig'ilishni eslab, miyig'ida kulib qo'ydi. "Inobatxondan o'mrak olsalaringiz bo'lmaydimi, ketishini bilsayam harakatni so'ndirmayapti, yutuqlarga erishyapti!" Direktorning bu chorlovidan "Inobatxon qayerga ketyapti ekan?" deya qiziqsinib o'ylab qoldi qahramonimiz o'zining Inobat ekanini ham unutib.

Darvoqe, u ota-onalar va rahbariyat xohishini hisobga olgan holda vijdonan bu dargohni tark etishga qaror qildi. U nafaqat chet tili o'qituvchisiga yelchimgan, balki uncha-muncha o'qituvchining qadami yetmaydigan, qatnoviga uragi betlamaydigan olis qishloqqa yo'l oldi. O'sha nemis tiliga bo'lgan muhabbati tufayli yo'l azoblarini hisobga ham olmabdi bizning tinib-tinchimas Inobat. Faqat bu qishloqda ham "yo'qdan ko'ra bor" ustoz bo'lganini ich-ichidan his qilardi qo'lida qizil diplomli bizning Inobat. Bir-ikki ota-onaning bemavrid, besar tashriflarini hisobga olmaganda hammasi yaxshi ketardi. Bir sinfda ingliz tili yoki nemis tili o'qitilishi muammo bo'lib qoldi. U o'ziga juda ishonardi. Hukm — rahbariyat va killari, o'quvchilar, ingliz tili o'qituvchisi va uning ishtirokidagi majlisga bog'liq edi. ...Ingliz tilining muhim til ekanini haqida gap ketardi. U masalani tezroq hal qilish yo'lini topdi: "Ingliz tili o'tilishi uchun qo'l ko'taramiz, bolajonlar!" Bolalar 2 yil davomida o'qitgan ustozini ko'rganidan shod, o'sha tanish ovozza bir zum mahliyo bo'lib qo'llarini tepaga ko'tardi, ammo bu holat ularni ustozidan muso-vat etayotganidan bexabar edilar. Majlis ham adolat bilan yakun topdi. Tanaffusda eng a'lochi o'quvchi Charos Inobatning yoniga kelib "Nega bizni tanlamadingiz?" deya yalinmoqchi bo'lgandek tikildi-yu, bundan xijolat bo'lib, yugurib ketdi. Bu mushuday qizning "Ustoz, ojizsiz!" degan ta'kid edi.

Inobat ishlagan bu maktab ahli unga "insof qilib nemis tili o'qitilishiga sharoit yaratganliklarini" goh-goh ta'kidlab, bag'rikengligini eslatib turishardi. Ba'zi hamkasblari esa ustoz degani faqat o'zini o'ylamay, kelajak avlod taqdiriga ham qayg'urishi to'liqligi haqida maslahat berishardi. Bu kelajak uchun nemis tili kerak emas degani edi.

Oxirgi darsini yakunlash arafasida betizgin tuyg'ularga belangan betartib yozliq xat kelib tushdi qo'lga: "Yuraklarga beruxsat kirib borasiz-u, haqqingiz yo'q beruxsat ketishga!" O'quvchilari uni yaxshi ko'rishardi. Zamon zayli ila rahbariyat-u ota-onalarning muhabbati yo'q edi unga. Inobat yosh bo'lishiga qaramasdan oxirgi darsini o'tardi. U yosh, shijoatli muallim edi...

Marhabo SATTOROVA,  
Nurota tumanidagi  
14-maktabning nemis tili fani o'qituvchisi

## Muallim yondaftaridan

### Ajab dunyo

Inson maymunda tarqalganmi? Faraz hamon tortishuv bo'lib keladi. Dastlab bu g'oyani Aristotel ilgari surdi. Charlz Darvin uni davom ettirdi, hatto odamga aylangan maymun turini ham isbotlay oldi. Fridrix Engels esa maymunning odamga aylanishida mehnatning roli katta bo'lganligini asoslab berdi. Haqiqatan ham shundaymikan? Agar mehnat hayvonga ta'sir etib, uni odamga aylantirayotgan edi, eshak hozir to'rda o'tirgan bo'lardi.

\*\*\*

Mag'lubni ham, qarzdorni ham rag'batlantirish lozim. Ular bo'lmaganda, g'olib ham, haqdor ham bo'lmasdi.

\*\*\*

"500 yildan keyin ham o'zbek tili yashaydi. Chunki bu tilda MEN gapiraman". Har bir o'zbek shunday fikrda bo'lsa, ona tilimiz hatto 5000 yildan keyin ham mulqot vositasi bo'lib qoladi.

\*\*\*

Uyga g'irt mast bo'lib qaytdingiz. Xotining qovog'i soliq, bolalar berkinib olishgan. Ularni haqorat qilgandan ko'ra, oynaga bo'qing: bir maxluq serrayib turibdi. Qo'rqinchli basharaga kim ham shirin kalom aytishi mumkin? O'zini birovning o'miga qo'yib fikrlagan odam hech kimni ayblamaydi.

\*\*\*

Insoniy fazilatlarimiz barchaga manzur. Yutuqlardan esankirab qolmang. Aksingizga tikilib, tanqidiy fikr ayting. O'shanda taltayib ketmaysiz, odamiylik bir umr ma'naviy mulkingiz bo'lib qoladi.

\*\*\*

Xonadoningizda chiroq o'chib qoldi. Shamni oynaga tutsangiz, yorug'lik yanada ortadi.

\*\*\*

Ko'pchilik oldida ma'ruza qilishga cho'chiyapsiz. Oynaga qarab, tinimsiz mashq qiling. Sizga tikilib turgan yuzlab ko'zlar oldida dadil gapira oladigan notiq bo'lib yetishasiz.

\*\*\*

Yolg'izlik qursin! Biror dardkash yo'q. Bir nechta oynani qarshingizga qo'ying. Do'stlaringiz ko'payganini his qilasiz. Oyna illatlarni ham, fazilatlarini ham bejamasdan, qanday bo'lsa, shundayligicha ko'z o'ngingizda namoyon etadi. U gapingizni bo'lmasdan, luqma tashlamasdan eshitadi. Mensimaslik unga begona. Qayg'uda ham, xursandchilikka ham beminnat sherik. Oynaga vaziyatni turishni kanda qilimgan. U har qanday baqiyatda sizning suyaning'ingiz bo'lishi mumkin.

\*\*\*

13 raqamini xosiyatsiz hisoblab, chetlab o'tishga harakat qiluvchilar bor. Raqamda qanaqa baxtsizlik bo'lishi mumkin? Oilaning o'n ikki farzandi go'dakligidayoq nobud bo'lib, o'n uchinchi omon qoladi. U buyuk adibimiz, "O'tkan kunlar" romani bilan qalbimiz to'ridan joy olgan Abdulla Qodiriydir. Mashhur Garri Kasparov 13-martda tug'ilgan va shaxmat bo'yicha 13-jahon chempioni bo'lgan. Andijon viloyatida kundan kunga

rivojlanayotgan 13 ta tuman bor. Inson 13 — 14 yoshda o'zini kattalardek his qiladi. Har qanday irimchi 13-maoshdan voz kechishni istamaydi.

\*\*\*

Qora rangga bo'lgan salbiy munosabat ham 13 raqamidan kam emas. Kamdan-kam odamga bu rang yoqadi. Qorani motam, salbiy xususiyat, yomonlik belgisi deb hisoblash joizmi? "Farhod va Shirin" dostonida yozilishicha, Xitoy xoqoni uzoq kutishlardan so'ng o'g'il ko'radi. Sevinchi ichiga sig'may, mamlakatdagi hamma devorlarga qora mato ildiradi. Chunki bu rang ulug'vorlik, go'zalik, navqironlik ramzidir. Soch, ko'z va qoshning boshqa rangda bo'lishini tasavvur qila olamizmi? Qora ko'zoynak ko'zni oftob nuri ta'siridan, oppoq qorda shafaqlanishdan asraydi. Qora tun osudalik belgisi. Qora belbog' — professionallik belgisi.

\*\*\*

— Ko'zi ko'klar el bo'lmaydimi? — so'rab qoldi o'quvchi qiz.

Noo'rin savoldan ustozning jahli chiqdi. Ammo u tezda shashtidan tushdi. Qizning moviy ko'zlarida qandaydir o'kinch, alamzadalik bor.

— Ko'k ko'z eng chiroyli insonlarda bo'ladi, — deya tushuntirdi ustoz. — Ajdodlarimiz moviy ko'zli bo'lgan, ko'k ko'zli o'zbeklar atrofda qilgilar o'zgacha tuyuladi. Kamyob narsa qadri hisoblanadi. Ko'k ko'zli ayoli bor oilaga baraka kiradi. Xotirjam bo'ling, biz yolg'iz emasmiz.

Ko'zining rangidan uyalib yurgan qizaloqning ko'ngli ancha yorishdi, o'ziga ishonch uyg'ondi.

\*\*\*

Surunkali ravishda aroq ichadigan bir kimsa vahimali tush ko'ribdi. Uning barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Xavotirga tushib, ta'burchiga boribdi.

— Tushingizning ma'nosi shuki, — debdi ta'burchi, — barcha gunohlaringiz to'kilib ketibdi. Endi savob ishlarni ko'proq qilib yursangiz, hayotingiz farovon, yo'lingiz ravon bo'ladi.

U ta'burchidan ruhlanib ketib, poklik sari qadam qo'yadi. Ichkilikni butunlay tashlaydi, namozga kiradi. Parhezda yuradi. Ishini ham tiklab, qo'li pul ko'radi. Ketib qolgan xotini va bolasini uyiga olib keladi.

Barcha tushlar hamisha yaxshilikka yo'yilsa, ko'ngil xotirjam, hayot mazmunli o'tadi.

\*\*\*

To'y avjiga chiqqan pallada yomg'ir sharros quyib berdi. Mehmonlarning yuzi tundlashdi, kayfiyati buzildi. Bu holatdan sira xafa bo'lmaslik, ko'ngilni keng qilish lozim. Aslini olganda, qalbi toza, pok insonlarning to'yida yomg'ir yog'ar ekan.

\*\*\*

Nihoyat, moyana ham qo'lga tegdi. Avvalo, qarzlardan qutulishim kerak. Qassob, kosib, do'konchi... mendan rizi bo'lishdi. Mashinaga qo'l ko'taraturib, kossaga nigoh tashladim. Yo'lkiraga andak yetmas ekan. Manzilim tomon yayov ketdim. Piyoda yurish — bag'oyat foydalidir...

Muzaffar ISMOILOV,  
Andijon tumanidagi  
38-maktab o'qituvchisi


## DAVLAT TEST MARKAZI UMUMTA'LIM FANLARIDAN MALAKALI MUTAXASSISLARNI HAMKORLIKKA TAKLIF ETADI

Davlat test markazi ilm-fanni rivojlantirish, test texnologiyalarining zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, xalqaro tajribalarni o'rgangan holda bilimlarni baholashning milliy tizimini ishlab chiqish uchun quyidagi umumta'lim fanlari bo'yicha malakali mutaxassislarni hamkorlikka taklif qiladi:

1. O'zbek tili va adabiyoti.
2. Matematika (o'zbek va rus).
3. Biologiya (o'zbek va rus).
4. Kimyo (o'zbek va rus).

Talabgorlar o'zlariga to'g'risidagi ma'lumotni [test@dtm.uz](mailto:test@dtm.uz) elektron manziliga yuborishini so'raymiz.

Murojaat uchun telefon: (71) 234-42-60.



**Gulyamova Shaxnoza Xaxramonovnaning 10.00.01** — O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha "O'zbek tili efvemizmlarining gender xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.72.03 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 13-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
Tel/faks: (65) 221-29-14, 221-27-57; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)

**Bazarova Dildor Baxronovnaning 10.00.01** — O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha "O'zbek tilida variantdosh birliklarning nutqi go'llanishi va uslubiy xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy.  
Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: [kardu@mail.ru](mailto:kardu@mail.ru)

**Xudoymurodova Xuriyat Muxiddinovnaning 10.00.02** — O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Nodir Normatovning badiiy mahorati" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy.  
Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: [kardu@mail.ru](mailto:kardu@mail.ru)

**Shaumarov Said Sanatovichning 05.09.05** — Qurilish materiallari va buyumlari va 05.09.01 — Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar ixtisosliklari bo'yicha "Energiyasamarali binolarning oldindan belgilangan xossalari majmuyiga ega g'ovakli beton tashqi to'siq konstruksiyalarini loyihalashning metodologik asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 24-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"V" uy.  
Tel/faks: (71) 241-10-84; e-mail: [devon@taqi.uz](mailto:devon@taqi.uz)

**Tadjibayeva Dilbar Axmedovnaning 13.00.02** — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili) ixtisosligi bo'yicha "Kichik maktab yoshidagi bolalarning chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish (nemis tili misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 25-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"A" uy.  
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru)

**Shukurullayev Botir Amanboyevichning 02.00.11** — Kolloid va membrana kimyosi ixtisosligi bo'yicha "Neft quyqalaridan yo'llarning asosi uchun bog'lovchi olish texnologiyasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K.T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 13-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.  
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: [ionxanruz@mail.ru](mailto:ionxanruz@mail.ru)

## Respublikada yagona Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish Tarmoq markazida "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti" va "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash (ixtisoslashuv) kurslari shartnomaviy asosda tashkil etilishi e'lon qilinadi.

2020-yil 10-mart sanasidan qayta tayyorlash kurslarida 576 soatlik (4 oylik) o'quv kursi tashkil etiladi.

Kurs yakunida tinglovchilarga diplom beriladi.

Kurslarga ro'yxatga olish 10-martdan Tarmoq markazi binosida amalga oshiriladi. Shoshiling!

Manzil: Toshkent shahri, Labzak ko'chasi, 107-uy.

Murojaat uchun telefonlar:

(71) 241-34-35, (93) 549-55-44, (97) 735-25-91, (90) 952-02-04.

e-mail: [tdtu\\_tm@mail.ru](mailto:tdtu_tm@mail.ru)

**Nosirova Zarifaxon G'ulamjonovnaning 06.01.09** — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Tutni parvona (Glyphodes Pyloalis W.)dan zaharli bo'lmagan vositalar yordamida himoya qilish tizimini yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 17-mart soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: [tuag-info@edu.uz](mailto:tuag-info@edu.uz)

**Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevichning 06.03.01** — O'rmon ekinlari. Seleksiya, urug'chilik va shaharlarni ko'kalamzorlashtirish. O'rmonlar agromeliatsiyasi va himoya o'rmonlarini barpo etish ixtisosligi bo'yicha "Oddiy soxta kashtan va yapon soforasi ko'chatlarini yetishtirishning agrotexnikasini yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 20-mart kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: [tuag-info@edu.uz](mailto:tuag-info@edu.uz)

**Nazirov Muxtor Maxmudovichning 23.00.02** — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Markaziy Osiyo davlatlaridagi siyosiy jarayonlar evolyutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 17-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100192, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-53-21; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz)

**Avazov Komil Xolliyevichning 23.00.02** — Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Tahdidbardosh jamiyatni shakllantirishning siyosiy tahlili" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 17-mart kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100192, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 246-02-24, 246-53-21; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz)

**Boymurodova Gulzoda Toshemirovnaning 13.00.01** — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.  
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: [nkspi\\_info@edu.uz](mailto:nkspi_info@edu.uz)

## Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qiling

Kunlar sovushi ham tugab bormoqda, ammo is gazidan doimiy ravishda ehtiyot bo'lish talab etiladi. Uyni yong'indan saqlash uchun ayrim ko'rsatmalarga amal qilish dardkor.

Sovuq kunlarda uy-joyingizni isitish uchun mo'ljallangan pechka va gaz plitalarining nosozliklari yong'iniga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli uydagi gaz va elektr asboblarni nazoratsiz qoldirmang. Gaz va elektr asboblarning nazoratini yosh bolalar ixtiyoriga topshirmang. Uydan chiqishdan oldin gaz va elektr uskunalarning o'chirilganligini tekshirib chiqing. Shu kabi qoidalariga rioya qilsangiz o'z uyingizni yong'indan asragan bo'lasiz. Shuni unutmaslik kerakki, yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish bilan o'z salomatligingizni, uyingiz va jihozlaringizni, shuningdek, oila a'zolaringizning hayotini yong'in xavfidan saqlagan bo'lasiz.

Muxtor XASIMOV,  
XYTTEB "Ma'rifat markazi"  
mutaxassisi, oddiy askar



## Barcha abituriyentlar, ota-onalar va o'qituvchilar diqqatiga!

“Marifat” gazetasi sahifalarida:

abituriyentlar uchun

DTM testlari darajasidagi sinov testlari

o'qituvchilar uchun

PISA

PIRLS

TIMSS

testlaridan namunalari e'lon qilina boshlandi.



Vaqtidan yutqazmang. Nashrimizga tezroq obuna bo'ling! Gazetaning o'z vaqtida yetib borishini istasangiz, “O'zbekiston pochta” AJ va “Matbuot tarqatuvchi” AKning hududiy filiallariga murojaat qiling!

“Marifat” gazetasiga 2020-yil uchun obuna darajasi etadi.

Bundan tashqari, o'tgan yilgi kirish imtihonidagi murakkab testlar yechimiga doir

SHARHLAR:

IZOHLAR:

O'QUV LUG'ATLARI

muntazam berib boriladi. Shu bilan birga, o'qituvchi-murabbiylar uchun

ATTESTATSIYA TESTLARIdan namunalari ham e'lon qilinadi.



Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi 149  
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar 32-uy.  
Tel.: (71) 233-50-55, faks: (71)233-99-15.

Bizni internetda ham kuzating!

[www.marifat.uz](http://www.marifat.uz) [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifat.uz](https://www.instagram.com/marifat.uz)

## Nashrimizga obuna bo'lishni istaganlar uchun

“O'zbekiston pochta” AJ va “Matbuot tarqatuvchi” AKning hududiy filiallari telefon raqamlari havola etilmoqda.

### “O'zbekiston pochta” AJning korxonalari telefon raqamlari

No	Hududiy filiallar	Telefon	No	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri filiali	(71) 233-73-56	8	Xorazm filiali	(62) 228-51-71
2	Andijon filiali	(74) 223-26-24	9	Surxondaryo filiali	(95) 501-01-95
3	Qoraqalpog'iston filiali	(61) 222-14-43	10	Toshkent filiali	(71) 268-22-56
4	Qashqadaryo filiali	(75) 221-04-62	11	Samarqand filiali	(66) 229-49-27 229-51-16
5	Jizzax filiali	(90) 538-02-69	12	Farg'ona filiali	(73) 244-47-79
6	Namangan filiali	(69) 233-03-67	13	Sirdaryo filiali	(95) 510-01-94
7	Buxoro filiali	(65) 223-48-93	14	Navoiy filiali	(91) 335-66-62

### “Matbuot tarqatuvchi” AKning korxonalari telefon raqamlari

No	Hududiy filiallar	Telefon	No	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri	(71) 233-67-98	8	Xorazm viloyati	(62) 227-48-55
2	Andijon viloyati	(74) 223-82-13	9	Surxondaryo viloyati	(76) 221-91-18
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi	(61) 222-88-63	10	Toshkent viloyati	(71) 199-76-66
4	Qashqadaryo viloyati	(75) 225-40-27	11	Samarqand viloyati	(66) 234-22-53
5	Jizzax viloyati	(72) 222-40-01	12	Farg'ona viloyati	(73) 244-50-77
6	Namangan viloyati	(69) 239-10-88	13	Sirdaryo viloyati	(67) 225-11-22 225-11-44
7	Buxoro viloyati	(65) 221-56-90	14	Navoiy viloyati	(36) 223-26-86

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 149  
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Tel.: (71) 233-50-55, faks: 233-99-15.

Bizni internetda ham kuzating!

[www.marifat.uz](http://www.marifat.uz)

e-mail: [info@marifat.uz](mailto:info@marifat.uz)



[/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz)



[@marifat.uz](https://www.instagram.com/marifat.uz)

# Marifat

## TA'SIS ETUVCHILAR:


O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

## Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. G-329. Tiraji 10966. Hajmi 4 bosma tabaq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

## TELEFONLAR:

qabulkona — (71) 233-50-55;  
kotihiyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



“Ma'rifat”dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

## MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: [www.marifat.uz](http://www.marifat.uz)

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
Navbatchi muharrir: Sardor Mustafoyev  
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.  
Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'za yakuni — Topshirildi — 22.30

1 2 3 4 5 6